

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM
VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

F.XO‘JAYEV, U.RADJAPOV, A.ABDIYEV, H.SATTOROV

YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORLASHDA TIZIMLI YONDASHISH

O‘QUV QO‘LLANMA

Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishidagi ta’lim faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan sport ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

“UMID DESIGN”
TOSHKENT - 2021

UO'K 796.332(075.8)
KBK 75.578ya73
Yo 83

F. Xo'jayev, U. Radjapov, A. Abdiyev, H. Sattorov.
Yosh futbolchilarning texnik tayyorlashda tizimli yondashish [Mant] : o'quv
qo'llanma / F. Xo'jayev, U. Radjapov, A. Abdiyev, H. Sattorov.-Toshkent:
ChP "Umid Design", 2021.-232 b.
ISBN 978-9943-7291-8-6

Annotatsiya

Ushbu "Yosh futbolchilarning texnik tayyorlashda tizimli yondashish" o'quv qo'llanma O'zDJTSU va pedagogika oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetining talablariga, BO'SM, IBO'SM, Olimpiya zaxiralari kolleji, futbol akademiyalarining murabbiylariga, umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarning jismoniy tarbiya o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Mualliflar:

Faxriddin Xo'jayev,
Usmon Radjapovich Radjapov,
Abdulla Nosirovich Abdiyev,
Hayot Sattorov.

Taqrizchilar:

p.f.n., dotsent Utenov O.U.
p.f.n., dotsent Aripov Yu.Yu.

O'quv qo'llanma Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2019-yil 15- sentyabr,1-son bayonnoma).

UO'K 796.332(075.8)
KBK 75.578ya73
Yo 83

ISBN 978-9943-7291-8-6

©F. Xo'jayev, U. Radjapov, A. Abdiyev, H. Sattorov., 2021
© "Umid Design" nashriyoti, 2021

KIRISH

“Sport – sport uchun emas, eng avvalo, odamlar uchun, ularni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan komil inson etib tarbiyalash uchun, yer yuzidagi barcha kishilarning tinchlik – osoyishtaligi, do‘stlik va hamkorligi, baxt – saodati uchun xizmat qilishi darkor”.

I.A.KARIMOV

Sog‘lom va barkamol avlod mamlakatimiz taraqqiyotini, halqimiz farovonligini, turmushimiz obodligini ta’minlovchi qudratli kuchdir. Shu bois yoshlarni jismoniy sog‘lom, ma’nan yetuk etib tarbiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Har qanday yurtning kelajagi uning farzandlariga bog‘liq. Yetishib kelayotgan yosh avlod qanchalik bilimdon, sog‘lom baquvvat, har tomonlama barkamol bo‘lib o‘ssa, Vatan kelajagi shunchalik porloq umidli bo‘ladi.

Sog‘lom va barkamol avlod mamlakatimiz taraqqiyotini, halqimiz farovonligini, turmushimiz obodligini ta’minlovchi qudratli kuchdir. Zero, har qanday mamlakatning ma’naviy-moddiy boyligini yaratuvchi halqning tani-joni sog‘ bo‘lsagina, qilgan ishda baraka bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan O‘zbekiston futbolchilarining maxoratini oshirishga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qilindi.

Futbolning zamonaviy rivojlanishi darajasi hamda halqaro sport maydonida raqobatning o‘shishi va yosh futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulotlari va tiklanish jarayonini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Respublikamizda bolalar-o‘smirlar futbolini rivojlantirishda hozirgi zamon tashkiliy shakllarining yangi yo‘nalishlaridan foydalanmoqda.

Shulardan 1996-yil 27 yanvardagi “O‘zbekiston futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sonli qarorida

jamoalarning tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi, o'smirlar futbolining rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu qarorning amalga oshirishi futbol klublarida maxsus yo'naltirilgan maktablarni rivojlantirish, viloyat markazlarida Olimpiya zahiralari kollejlarini tashkil etish masalalarini yechish bilan bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda futbolchilarni texnik tayyorgarlikgi eng ko'proq aktual muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shuning uchun o'rgatishni boshlang'ich davrida o'yin usullarini mustaxkam egallash yetarli emasligi, keyinchalik futbolchilarni tayyorlashda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Futbolchilarni reja asosida tayyorlash davrida oshirishga xarakat qilish, xammadan ko'ra tez-tez shunga olib keladiki, ya'ni shug'ullanuvchilar zarur bo'lgan malakalarni egallay ololmaydilar, bu ularni kasbiy tayyorgarlik ko'rish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun mashg'ulot jarayonini samarali boshqarishi uchun turli-tuman yosh davrlarida yosh futbolchilarning tayyorlash tuzilishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish juda muhimdir, bu yerda sportni takomillashtirishni barcha elementlari futbolchini har tomonlama tayyorgarligi bir-birlari bilan chambarchas bog'langan holda bo'ladi.

Texnik tayyorgarlik logik jihatdan ko'pyillik jarayonni tuzilishini o'zida tasavvur qiladi, u aniq maqsad, vazifaga, shuningdek ularni amalga oshirish uchun o'quv yondashishni to'liq majmuasi yo'liga ega bo'ladi. Futbolchilarni o'rgatishni ko'p yillik jarayonni tuzilishi va mazmuni har yili o'zgarishi shart, bu esa sportni takomillashtirishni va yoshiga qarab rivojlanishi tibbiy qonuniyatlarga logik jihatdan ob'ektiv aks etadi. Mashg'ulotlar jarayonini boshqarish va tashkil etishi qo'yilgan vazifalarga qat'iy ravishda to'g'ri kelishi shart.





YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORLASHDA TIZIMLI YONDASHISH

Ko'p yillik mashg'ulotni ma'lum ob'ektiv qonuniyatlarga asoslanganlikka bo'ysinadigan, ma'lum rivojlanish yo'liga ega bo'lgan, qachonki reja asosida rejalashtirilgan jarayonga ega bo'lgan, yagona o'quv-mashg'ulot jarayoni sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqa sport turlarining tajribasini ko'rsatishicha tayyorlash davrini qisqartirish uchun va texnika elementlarini ko'proq sifatli o'rgatishda yangi o'quv yoki uslubiy prinsip kerak, uni asosi esa sistemali yondashish hisoblanadi. Ob'ektlarni va jarayonlarni o'rganishda metodologik yo'nalish sifatida sistemali yondashish hozirgi vaqtda sportda borgan sari ko'proq ommalashib bormoqda. Uni namoyon bo'lishi ilm va fanni va amaliy faoliyatda rivojini shuningdek doimiy ravishda o'rganiladigan xodisalarni murakkabligini oshib borishi o'zaro bog'liqligidadir.

Yosh futbolchilarning texnik tayyorlashda sistemali yondashish tasodif emas. U texnik tayyorgarlikdagi yetilgan muammolarni xal etish zaruriyatini va olti yillik o'rgatish jarayonida ma'lum uslubiy yordam bilan boshqara olishini yaratishini aytib turadi. Sistemali tizim yagona dinamik tuzilish tayyorlashni barcha elementlarini hisobga olish muvofiqlashtirishni nazarda tutadi, qaerda xar bir element sistemali sifatga ega bo'ladi, bu esa u yoki bu texnik usulni takomillashtirish darajasi va dinamikasini ko'rishga imkoniyat beradi. Futbolda mashg'ulot qilish yuqori darajadagi murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi, shuning uchun murabbiyga mashg'ulot tizimidagi barcha murakkab mexanizmni qismlarga ajratish juda ham muhimdir.

Sport o'yinini o'quv jarayonini tadqiqotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ya'ni o'xshash mashqlarni xilma-xil turlari bitta va shunga o'xshashini davom etishiga nisbatan, ko'proq samarali bo'ladi va darsni mashg'ulot qilish samarasi, xarakterni avtomatizm razryadiga o'tkazish uchun zarur bo'lgan, takrorlash soni aniqlanadi. (Duipan, 1958). Xuddi shunday sonda takrorlanish 300 ta hisoblanadi. (Naumov, 1967 y).

Shunday qilib, futbolda texnik usullarga o'rgatishni boshlang'ich davrida takrorlash soni va ularni varianti birinchi o'ringa suriladi, bu esa xarakterlantiruvchi xarakterni barcha xilma-xilligini qamrab olishga imkoniyat beradi, nihoyat yakuniy bosqichida esa o'yin sharoitlarini mustaxkamlashish roli oshib boradi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ya'ni 300 marta takrorlashni soniga yaxshilab o'rganiladigan elementi bir nechta variantlarini kiritilgan bo'lishi shart. 5-6 mashqdan tashkil topgan (bitta maqsadga ega va o'zining tuzilishi bo'yicha o'xshash bo'lgan) model-texnik jihatdan tayyorlashni zarur malakalarini egallashni o'zi tez va maqsadga muvofiq yo'l hisoblanadi. Shunday qilib, mashg'ulot qilish jarayonini optimallashtirish muammosini xal etishga imkon beradigan usullaridan biri, modellashtirish hisoblanadi.

Bizni esa eng asosiysiga olib keldi. Bu bolalarni o'quv-mashg'ulot jarayonida model nima degani? Bu maqsad va vazifalarni umumiy shakllantirishga ega bo'lgan va albatta bir-birini to'ldiradigan biror maqsadga yo'naltirilgan mashqlar guruhidir. Shunday qilib, aniq ketma-ketlikdagi mashqlar shug'ullanuvchilarni birmuncha yengil qabul qiladilar, bu esa zarur bo'lgan ish hajmini bajarishga imkoniyat beradi.

Har bir model orasida, o'quv materiallarini ko'proq samarali egallashini ta'minlaydigan, ma'lum xarakter qilishni to'liq tizimi turadi. Shuning uchun, ko'proq murakkab bo'lgan kun texnik elementlarini modelni yaratadi, misol uchun to'pni havoda yoki yerda tanlab olishda, sizga siz tomondan payqalmagan bo'sh qolgan joyni tezda tiklash uchun, zarur bo'lgan mashqni tezda qidirib topish bilan shug'ullanishga to'g'ri kelmaydi, chunki, bu mashqlar tuzilgan va sinovdan o'tgan har doim sizda bo'ladi.

Bu model bazaviy hal etish hisoblanib, uni tashkillashtirishga to'g'ri keladi, lekin bunda asosiy tuzilish hususiyatini jiddiy almashtirmaslik lozim. Modelni tuzilishini alohida elementlarni o'rganish sifatida shunday qilib va sportchini ko'p yillik tayyorlashni barcha jarayonida tasavvur qilish mumkin. Shunday modellashtirishni maqsadi yengil qabul qilinadigan ko'rinishida nisbatan texnik tayyorgarlikni murakkab jarayonida aniq tasavvur qilish mumkin. O'rgatishni to'g'ri tashkil qilingan tizimi tayyorlash jarayonini yengilligi boshqarishga imkoniyat beradi. Amaliy tajribalardan kelib chiqib, shuni tasdiqlash mumkinki, mashg'ulot darslarini modellari nafaqat texnik tayyorgarlik bo'yicha yillik materialni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ko'proq va tezda boshqarish jarayonini ta'minlaydi.

Shunga e'tibor berish kerakki, ya'ni taklif qilinayotgan model doimiy bo'lib qolmaydi va shug'ullanuvchilarning faolligi hamda qobiliyatlariga bog'liq holda murabbiy qo'shishi yoki birona vazifani o'zgartirishi, shuningdek, takrorlash sonini kamaytirish va oshirishi mumkin.

Model shuning uchun ishlab chiqilganini, albatta, chunki murabbiyni mashg‘ulotni o‘ngaygina o‘tkazish uchun emas, balki ularni qo‘llash darsni ko‘proq, zich jadal o‘rgatish jarayonini takomillashtirishni va uni samaradorligini oshirish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu uslubni ijobiy tomoni – bu murabbiy va o‘quvchilarda kelib chiqadigan, ma‘lum sezgilardir. Barcha shug‘ullanuvchilarga maqsadi aniq bo‘lib, mashg‘ulotda ta‘qib qilishi esa va ularni muvaffaqiyatga erishish uchun ma‘lum vosita bo‘ladi.

Tasniflash (klassifikatsiya) asosida ta‘sir etish yo‘nalishi darajasi kiritilgan, bu esa mashg‘ulot qilish vositasini xilma-xil tartibga solishga imkon beradi va dasturli modelni o‘rgatishni tuzadi.

Taklif qilinayotgan modeli mashg‘ulot hech qachon biror lagerda texnik tayyorgarlikni barcha muammolarini batamom bajarishga javob bermaydi, biroq ular o‘rgatish jarayonida va to‘plangan tajribani ketma-ket tizimlashtirishda yangicha qarashga yoki yondashishga yordam beradi.





TEXNIK TAYYORGARLIKNI TASNIFLASH

Yosh futbolchilarning ko'p yillik mashg'ulot jarayonida tayyorlashni oshirishda olg'a intilishni ta'minlash uchun vazifa va maqsadlari o'rtasidagi aniq bosqichlarini to'g'ri aniqlashi zarur, shuningdek ularni amalga oshirish uchun muvofiq o'quv usullarni va vositalarni topish zarur. Materialni o'zlashtirish jarayoni ma'lum murakkabligiga mos keladigan mashqlardan foydalanish bilan qat'iy ketma-ketlikda bajariladi, u esa texnikani reja asosida shakllanib borishiga yordam beradi.

Futbol texnikasini o'rgatish jarayonini shartli ravishda ikkita bosqichga bo'lish mumkin, uni kelajakda texnik jihatdan qurollantirishni oldindan aniqlaydi. Birinchi bosqichi – bu o'rgatishni 1-chi, 2-chi, 3-chi yillari bo'lib, qachonki xarakteristik harakat malakalarini kengroq arsenalini yoki zahiralarni egallashda va murakkab texnik elementlarning hamda oddiy elementlarini egallashi mos keladigan mashqlar yordamida o'tadi. O'rgatilishni boshlang'ich davri ko'p miqdordagi bitta maqsadga yo'naltirilgan mashqlarni qo'llash bilan xarakterlanadi, ular oddiy jarayonda joyda yoki kichik tezlikda, vaqtni yetishmasligisiz, dumalashga to'p bilan qarshilik ko'rsatishsiz va bilan bajariladi bu birdek sharoitda mustaxkam malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Keyinchalik esa elementlarning va usullarning o'rganishi to'pni ishlashga, aldanchi harakatni qo'llashni bajarish maydonini qisqartirish topshirilgan uslubni qayta ishlashni aniqlashtirish, qo'shimcha elementlarni kiritishi yoki bir nechtalarini birga qo'shib bajarishga minimal vaqt sarflanadi.

Bu bosqichda, keyinchalik ixtisosligini fundamenti hisoblangan, futbol texnikasini asosini qo'yadi.

Ma'lumki, ya'ni faqat ko'p marta takrorlash yo'li mustaxkam malakalarni yaratishga texnik maxoratni mustaxkamlashga kafolat bo'lib hisoblanadi. Agarda qisqacha shakllantiriladigan bo'lsa, unda mehnat sonidan uni sifatiga o'tishga ro'y beradi, lekin hech qanday holatda na kilometr, na pulsni chastotasi boshlang'ich o'rgatishni tashkil etadigan jarayon hisoblanmaydi.

Ixtisoslikni birinchi bosqichida harakat sifatini rivojlantirish asosida organizmni qobiliyatlarini moslashtirishga to'plashdan foydalanish yetadi, bunda takroriy ta'sir etishni ta'siri ostida harakatni

asosiy tuzilishini shakllantirish bo'ladi. Shunday qilib, o'rgatishni boshlang'ich davrida juziy o'zgarishlar oldinga chiqariladi, u esa barcha turli-tumanlik va mashg'ulot vositasini katta hajmini qamrab oladi.

O'rgatishni ikkinchi bosqichi – bu 4-chi, 5-chi, 6-chi yillari bo'lib, maxsus vositalarni qo'llash bilan texnikani chuqurroq o'rgatish bilan farqlanadigan, uni futbolni o'ziga xos xususiyatini xisobga olish bilan, o'yinni real sharoitiga maksimal yaqinlashgan bo'lishi shart. O'rgatishda qo'llaniladigan mashq, katta miqdordagi qo'shimchalar, bog'lanish, qarshilik ko'rsatish, sharoitni va xarakatni tez o'zlashtirish bilan xarakterlanadi, ular musobaqalashishga yaqin bo'lgan sharoitda texnikasini mustaxkamlashga intiladi. O'rgatishni ushbu bosqichida futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi futbolchi sifati uchun zarur bo'lgan ta'sir etishga yo'naltirilganligini hisobga olish bilan quriladi.

Murakkab xarakat qilishga o'rgatishda faqat shundagina kirishishi mumkinki, qachonki mos keladigan yordamchi mashqlar yetarli darajada ishlab chikilgan bo'lishi lozim. Yoki boshqacha qilib gapirganda yordamchi mashqlar rivojlantiruvchiga o'tishi shart. Bu vaqtga kelib mashg'ulot jarayoni ko'proq jadallashgan bo'ladi va o'yinchilar nafaqat oldindan o'ylab qo'yilgan reja bo'yicha xarakat qilishlari kerak, biroq katta jismoniy va irodaviy zo'riqish vaziyatida eng kutilmagan vaziyatda to'g'ri xarakat qilish biroq o'yin vaqtida ham ijod qiladi.

Mashg'ulot jarayonida sport takomillashtirish guruhi uchun xal qiluvchi jadallashtirish hisoblanadi, qachonki asosiy prinsipni jismoniy va taktik bilan texnik tayyorgarlikni uslubiy bog'liqligi hisoblanadi. Guruhli va komandali – taktik harakat qilishga ajratilgan, vaqt birmuncha ortib boradi, shuningdek mashq ketma-ket murakkablashib boradi: to'pga tegish soni chegaralashini, o'yin bo'shlig'ini chegaralashi hujum qilish va himoyada xarakat qilish vaqtini chegaralashi albatta u yoki bu texnik elementni va boshqalar foydalaniladi.

O'quv qo'llanmada ikki tomonlama o'yinni, turt burchakda, mashqni jamoaviy xarakat qilishni turli tuman variantlari taklif qilingan, modamiki o'yindagi barcha katta ish texnika ustida yangi o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi – texnika – taktika, shak-shubxasiz, buni faqat jamoada futbolchi o'zaro tushunishni o'rganadi va faqat jamoadagina talantini o'zi oshirishi mumkin.

O'yinda nafaqat eng xilma-xil kombinatsiyalarni va ishtirokida ko'proq usullarini ketma-ket bajarilishi, biroq, ya'ni ayniqsa muhimi, texnik usullarni amalga oshirish qisqa vaqt ichida bo'lib o'tadi.

Shunday qilib, jamoaviy mashqni va o'yinni asosiy vazifasini o'yinni tezlikda olib yurish bilan texnik usullarning maksimal tezlikda birga qo'shib bajarishni bilishni takomillashtirish hisoblanadi.

Maksimal tezlikda yoki jadallikda usullarni maksimal tezlikda bajarishni maxsus chidamlilikni birmuncha talablarni oshiradi. Ana shu maqsadda qo'llaniladigan mashg'ulot vositasini yuklamasi haqida ma'lumotlar keltirilgan, bu esa uni mashg'ulot jarayonida optimal ravishda taqsimlashga imkon beradi.

Texnik tayyorgarlik darajasi o'sishi bilan o'rgatish vaqtida katta individuallashtirilgan tomonga o'zgaradi, modomiki hozirgi texnik mahorat har doim individual bo'lib qoladi. Shuning uchun texnika maktabini yaratishi bilan murabbiy o'quvchiga mashqni xar xil variantlarda bajarishni davom ettirishi kerak. Ulardan qanchalik ko'proq maqsadga muvofiqligini tanlab olinadi. Har bir yosh futbolchini mahoratini takomillashtirishida uning kuchli tomonlarini namoyon qilish kerak va yorqin individualligini yaratish uchun ularni yo'naltirilginligini rivojlantiradi.

Futbolda yuqori darajada o'rgatishga erishish juda qiyin va murakkabdir, uni eng avvalo o'yinni o'ziga xos xususiyatiga va uni ko'pchilik komponentlarini o'zaro bog'liqligini turli-tumanligidan iborat bo'ladi. Ana shunday ko'p yillik ish natijasi – katta istiqbolga ega bo'lgan futbolchi, u bizni o'zining texnikasi va albatta nostandart o'yinlari bilan xursand yoki lol qoldirishi kerak.





TEXNIK TAYYORGARLIKNI REJALASHTIRISH O'QUVI

Texnik o'rgatishni uzoq davom etadigan jarayon sifatida qarash kerakki, u esa yillar davomida dastur bo'yicha o'rgatishga bo'linadi (shu bilan birga har bir yilda sikllik ravishda takrorlanadi), lekin sifatli ko'proq darajada bo'ladi va shuning uchun unda alohida o'rinni rejalashtirish egallashi kerak. Murabbiy tomonidan o'rgatish jarayonini rejalashtirish uni boshqarish ishi ijodiy yondashishni, shuningdek keyinchalik hal etish uchun yaratiladigan asosini, vositasini qidirishni nazarda tutiladi.

O'quv jarayonini boshqarishda aniq maqsad va vazifalarini hisobga olish bilan mashg'ulot vositasini me'yorlashni joriy yilda qanday bo'lsa, shunday tayyorgarlikka alohida bo'limlarida to'g'ri birga qo'shib olib borishni nazarda tutiladi. Ana shunday ekan yosh futbolchini kelajakda o'sishini to'g'ri belgilashni tayyorgarlik maqsadga muvofiq rejalashtirilganmi yo'qmi, uni sportda muvaffaqiyatga erishishi ko'proq me'yoriga bog'liq bo'ladi.

Tabiiy ravishda savol tug'iladi, murabbiyning ijodi nima bilan yakunlanadi? Shunday ekan, darsni yo'nalishini aniqlovchi, modellarni zarur variantlarini tanlab olish birga qo'shib olib borish va o'zining kasbiy tushunchasini va o'yinni his etishini qo'shishi kerak.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, reja asosida ishlagan murabbiy, vazifasi va sharoitiga bog'liq holda aniqlashtirib olishi shart.

Eng avvalo, murabbiyni ishini samaradorligini mashg'ulotni amaliy qismini to'g'ri tashkil qila olishiga bog'liq, uyda shug'ullanuvchilarda texnik malakalar tarbiyalanadi. Texnik tayyorgarlik bo'yicha bitta mashg'ulot ikkita modeldan ko'p bo'lmaganini, olib boruvchi, imkoniyati boricha, turli reja xarakterida qo'llashni nazarda tutadi. Modellar orasidagi tanaffus 5-10 daqiqa bo'lib shug'ullanuvchilar uchun qanday zarur bo'lsa, shunday murabbiylarga hamdir. Shug'ullanuvchilarni oldin o'rgatilayotgan elementni yoki xarakat qilishda ularni diqqatini o'zgartirish, chalishtirishi, bo'shashtirish uchun mashq berish yoki zaruriyat tug'ulganda yordamchi mashqlarni berish zarur. Variantlardan bittasida sifatida turli tuman vazifalar bilan janglyorlik qilish uchun bir nechta mashqni taklif qilish mumkin. Murabbiyga, keyingi elementni o'tishiga, jixozlarni tayyorlashga, belgilarni qo'yib chiqish va boshqalarni tayyorlashi uchun unga pauza

zarur. Texnikani egallash bo'yicha bitta mashg'ulot mashg'ulotida ko'p bo'lmagan bitta elementni yoki usuldan o'rgatishi uchun kiritiladi.

Futbolda, boshqa sport turlariga o'xshash sifatida haftalik sikl davomida va bitta mashg'ulot vaqtida yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotni birga qo'shib olib borish va tashkil qilishni umumiy o'quv prinsiplari bor. Biroq texnika ustida ishlaydi ular o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, modomiki o'zini maqsadini tayyorgarlikni xar hil bosqichlarida iziga tushadi.

Texnik tayyorgarlikni rejalashtirishda tayyorgarlikni boshqa turlari o'rtasida o'rgatishni xar xil bosqichlariga muvofiq u xar xil holatni egallab turadi, o'sha prinsiplarga amal qiladi. O'rgatishni boshlang'ich davrida yoki bosqichida mashg'ulot mashg'ulotini tuzishni va rejalashtirishni ko'rib chiqamiz, qaerdaki texnik tayyorgarlik muhim o'rinni egallaydi.

Birdaniga sezishni, ya'ni mashqni davom etishi va modelda takrorlash soni ko'rsatilmagan, modomiki bolalarda o'zlashtirishi va moslashishi xar xil bo'ladi va mashqni me'yorlash to'liq murabbiyni ixtiyorida bo'liishi shart. Qoida bo'yicha, yangi elementni o'rgatish mashg'ulotni asosiy qismi boshlanishiga to'g'ri keladi, birinchi modeli mashq majmuasini kuzatib boradi, asosan yangi materialni o'rganib oladi, ikkinchidan – o'tganlarni takrorlash yoki jismoniy sifatni rivojlantirish. O'rganib olish yengillashtirilgan sharoitda o'tadi va murabbiy alohida diqqatni mushakni taranglashishiga va kerak bo'lmagan harakatlarni bartaraf etishiga qaratishi shart. Agarda xarakat uni maqsadga muvofiqligi va maqsadga yo'naltirilgan bo'lsagina, shunda texnika samarali bo'ladi.

Murabbiy mashqni tanlashda ularni murakkabligi hammani qo'lidan keladiganligini kuzatib borishi lozim, ya'ni o'quv jarayonini uzluksizligini ta'minlovchi – mazmuni bo'yicha, shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos keladigan, mashqlarni tanlash zarur. Mashqni murakkabligi bo'yicha murakkablashib borishiga amal qilishi kerak, lekin buni eslab qolish zarurki, ya'ni birinchi mashq barcha shug'ullanuvchilar uchun tushunarli va oddiy bo'lishi shart. Chunki murabbiy mashg'ulotni zichligiga erishish uchun harakat qilish kerak, chunki bir mashqdan ikkinchisiga o'tishi uchun 5-10 sekunddan oshmasligi zarur. Har bir qo'llaniladigan mashg'ulotni modeli aniq boshlang'ich ko'rsatmaga va uni mantiqiy jihatdan yakunlashga ega bo'lishi shart.

Texnikani takomillashtirish bosqichida murakkab o'yin sharoitida texnik usullarning qo'llanishi ishonchligini yuqori darajasiga erishish zarur. Mashq buning uchun ko'proq o'xshab ketadigan amallardan to'ldiradi, ular tormozlanmaydilar, balki texnik tayyorgarlikni stabillashtirishga yordam beradi, axir biz tomonimizdan tanlangan hohlagan taktika texnik tayyorgarlik jihatdan yuqori darajada ta'minlangan bo'lishi shart.

Agarda boshlang'ich davrida o'rganish va o'rgatish har doim mashg'ulotni asosiy qismini boshida bo'ladi, lekin, texnikani takomillashtirish bosqichida shunday ketma-ketlik shart emas. O'rganilayotgan elementni yoki usulni mustaxkamlashda texnik malakalarning turg'unligini oshirish uchun yuklamadan foydalanib va charchash vaziyatida berish mumkin.

Murabbiy, rejalashtirishni boshlaganda yoki qarshilaganda tayyorgarlikni va tarbiyalashni barcha bo'limlari bo'yicha ishni muqobilligini aniq ko'ra bilishi shart. O'zini oldida biror maqsadga yo'naltirilgan vazifaga ega bo'lib jadvalni tuzadi, unda mashg'ulotni vazifasini ketma-ketligini va mazmunini, ularni o'rtasidagi o'zaro aloqadorligini aks ettiradi. Jadvalda musobaqalashish davrida nafaqat tayyorgarlikni turlarini, balki o'yinlarni, ularni murakkabligini va yuklama bo'yicha baholash mumkin, modomiki mashg'ulot bu yoshda bo'ladigan o'yinga tayyorgarlik ko'rishga qisman yo'naltirilgan bo'lishi shart.

Jadvalda o'quv-mashg'ulotjarayonini barcha mazmunini kelishilishi kerak, bu esa mashg'ulotni borishini boshqarish va aniq ko'rish imkoniyatini beradi. Mashg'ulot jarayoni bo'ladi va tuzutish kiritish shart, mashg'ulot jarayoni tizimi uchun optimal kun tartibidan har doim og'ib boradi.

Haftalik xuddi shunday mashg'ulotni oylik davrida materialni o'rganishni to'liq siklini tashkil etish uchun, murabbiy mashg'ulot mashg'ulotini har xil yo'nalishlarda optimal ravishda ta'sir etishini ta'minlash zarur, shuning uchun dasturni tuzishni ayrim o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tish zarurdir. Kunlar bo'yicha mashg'ulotni rejalashtirishda quyidagilarni hisobga olish kerak: 1) kunlar bo'yicha modellarni optimal takrorlashini taqsimlash; 2) keyinchalik har bir mashg'ulot mashg'ulotiga ta'siri boshqacha qilib gapirganda, mashg'ulot jarayoni har bir keyingi mashg'ulotga ta'sir etishi oldingidan ta'sir etishiga iziga qatma-qat taxlash lozim. Eng yuqori pedagogik darajada o'tkazilgan, bitta mashg'ulot mashg'uloti o'zida hech narsani tasavvur qilolmaydi va agarda kelishmovchilik va

o'rganishni barcha jarayonini ketma-ketligi bo'lmasa mashg'ulot qilish samarasi mukammal bo'ladi.

Mashg'ulot mashg'ulotini rejalashtirishga shunday defferensial yondashish va taklif qilinayotgan modellardan foydalanish bo'lajak futbolistlarning texnik qobiliyatlarini birmuncha oshishiga yordam beradi. Shubxasiz juda, ya'ni ko'p yillik mashg'ulot prinsiplarini bo'shashtirib, qanday qilish kerak, nimani bilmaslik kerak va bundan nima qilib chiqishini rejalashtirish kerak.

Shunday qilib, texnik tayyorgarlikni takomillashtirish jarayoni doimiy hisoblanadi, u hech qachon tugamaydi va uni amalga oshirish uchun doimiy ravishda ko'proq samarali vositani qidirishni talab qiladi. Biroq bu faqat shunday sharoitda bo'lish mumkin, bu tayyorlash jarayoni zamonaviy o'rganish va mashg'ulot metodlarida qo'llaniladi.



DASTURLASHTIRISHLI O'RGATISH MASHQI

Futbolchilarni tayyorlash o'ziga xos bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liqdir. Futbolni murakkab va qiyin texnikasiga qaramay katta sonli xarakat qilish vazifalarini xal etishga to'g'ri keladi. Chunki doimiy ravishda o'zgarib turuvchi vaziyat, yuqori mazmunga boy elementlar va usullarni, ularni bajarishni katta zichligi – bularni barchasini tashkil etuvchi o'yinlarni mashg'ulot jarayonida o'tkazish zarur. Shuning uchun ham murabbiyga juda muhim vazifa yuklanadiki – mashqni diqqat bilan qo'shib qidirish va tanlash yuqorida ko'rsatilgan sifatni rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun ham bajarishdan yuqori foyda bo'lishi uchun mashq ma'lum talablarga javob berishi shart, ular tushunarli, ko'rgazmali va ketma-ket bo'lishi shart, ularni bajarishi sifatli bo'lishini chunki futbol texnikasini sun'iy xarakteri asta-sekin tabiiy bo'lib boradi. Har bir mashq maksimal unum bilan ishlashni ta'minlash zarur, ketma-ket oshirib borib eng asosiysi – tezkorlik dinamikasini bajarish usullaridir.

Murabbiyni samarali ishlashi uchun – maxsus mashqlarni katta miqdordagi banki amaliyotda zarur, har bir tayyorgarlik bosqichi uchun, o'zini aniq talablarini ko'rsatadi, bunda murabbiy nafaqat mantiqan o'zlashtirishni, lekin guruhlarini tayyorgarlik darajasini ham boshqarishi shart.

Boshlang'ich tayyorgarlikni vazifasi – shug'ullanuvchilarning harakat qilishini keng doirada o'rgatishi, ya'ni texnik malakalarni va

usullarni egallashi uchun yaxshigina bazani yaratish kerak. Ixtisosi bo'yicha tayyorlash bosqichini vazifasi – futbolchini o'ziga xos sifatini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi uchun tashkiliy-uslubiy shakli sifatida mashqni maxsus xarakterga ega bo'lmagan deb qarash mumkin, masalan, har xil estafetalar, xarakat va sport o'yinlari va boshqalar bo'lib, ular xarakat malakalarini, shuningdek xarakat sharoitlarini rivojlantirishga yordam berishi shart. Mashg'ulot qilishni boshlovchi yosh futbolchilar uchun o'yinlar ko'proq foydali va samaralidir, modomiki ularni diqqatini jismoniy yuklamaga qaratmasdan, ularni xarakat qilishga va tez qiziqib o'ynashga jalb qiladi. Ular tez-tez shundaylarga e'tiborsizlik bilan qaraydi, masalan, harakat texnikasini egallash sifatidagi maqsad, shuning uchun ya'ni bu uzoq vaqt davomida diqqat bilan ishlashni ma'nosi ular uchun to'liq tushunarli emas va bu yerda bolalarni qobiliyati borligidan foydalanish zarur, uni rivojlantirish, o'zini namoyon qilishga, o'zini potensional imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini berish kerak.

Ushbu O'quv qo'llanmada mualliflar o'zlarining vazifalarini boshlang'ich tayyorgarlik uchun mashqlar natijalari yoki ro'yxatini berishni qo'ymaydilar, chunki ular ma'lumdir va qoida bo'yicha murabbiyda uni tanlashda qiyinchiliklar kelib chiqmaydi.

Ixtisosligi bosqichida mashq har bir mashg'ulotda aniq maqsadi bilan qaraladi va borgan sari ko'proq o'ziga xos xarakterni egallay boshlaydi. Mashg'ulot qilish vositasi doirasi oldingi bosqich bilan taqqoslash bo'yicha to'p bilan ko'p sonli mashqlar hisobiga kengayadi. Ana shu davrda murabbiydan mashg'ulot-musobaqalashish faoliyatida, chunki reja asosida va o'yinchilarning sifatli tayyorlashda boshqarishni yuqori mahoratni talab qiladi.

Ushbu qo'llanma yuqori malakali futbolchilarning tayyorlashga orientir qilingan bo'lib va takomillashtirish guruhi uchun mashqni tanlashni aniqlanadi ularni ayrim qismlari texnik jihatdan bajarishda faqat masterlar komandasiga mos keladi. Bu yerda maqsad bitta – u ham bo'lsa murabbiy va o'yinchilar bo'lajak mashg'ulotni murakkabli darajasini ko'ra bilishi va unga tayyorlanishi shart.

O'quv qo'llanmani amaliy qismida ketma-ketlik shaklida dasturni o'zlashtirish uchun vositalar to'plami bayon qilinadi. Tadqiqot yo'li bilan tanlab olingan vositalarni qo'llanishi, ko'proq optimal hisoblanadi. Murabbiy o'z navbatida dasturni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, u nimani kerakli deb hisoblasa, unda zarurini qo'shish

lozim va ehtimol eng murakkabi – o'yinni tushunishga va uni mustaqil ravishda boshqarishni o'rgatish.

Qo'llanmada futbolchilarning aylanma mashg'ulot usulida o'ynini variantlarini taklid kiladilar. Aylanma mashg'ulotni zalda o'tkazish albatta shart emas, uni futbol maydonida o'tkazsa xam bo'ladi. Bundan barcha shug'ullanuvchilardan foydalanishga imkoniyat beradi va xajmini ko'prok anik me'yorlashga xamda mashg'ulotni yo'nalishini boshkarishga imkoniyat beradi. Mashqlar sonini va ularni yo'nalishiga qarab murabbiy qo'yilgan maqsadiga bog'liq holda tanlaydi. Mashqlar majmuasini tanlaganda va tuzganda o'yinchilarning o'ziga hos xususiyatiga, imkoniyatiga va individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur, lekin futbolchilar har xil yuklama bilan, bir hil vazifani olishi mumkin va albatta o'yinchilarga xar hil yo'nalishdagi vazifalarni lekin bir xil yuklamani berish mumkin.

Aylanma mashg'ulot majmuasi varianti sifatida standart taktik kombinatsiya o'rtasida burchakdan, erkin, jarima zarba berishda, shuningdek komandalar uchun xarakterli bo'lgan o'yin vaziyatlarini va ularni xal etish variantlarini taklif qilish mumkin.

Aylanma mashg'ulot mashqlarni tanlashni o'zicha hususiyatlariga quyidagilar kiradi: 1) qo'llaniladigan mashqni o'zlashtirilganligiga qarab; 2) biletlar (situatsiya) bo'yicha mashqni aniq ketma-ketligi. Mashqlar majmualarini to'liq aniqlanmasdan, qo'llaniladigan vositalarni ta'sir etishini hisobga olmasdan to'liq va samarali o'rgatishni ta'minlash mumkin emas.

Malakalarning avtomatlashtirish jarayoni juda ko'p kuch vaqtni talab qiladi. Xattoki mashg'ulotda malakani juda ham mustaxkam egallashga yetarli darajada ularni o'yinda foydalanishga ham kafolat bermaydi. Shuning uchun mashg'ulot mashg'ulotlarida barcha tayyorlanganlarni o'yinga o'tkazish zarurdi, u yerda u o'yin sharoitida mustaxkamlashadi va takomillashtiriladi. Shuningdek o'yin tayyorgarligi tasniflangan, modelini hujumda o'ynashda qanday bo'lsa, va himoyada ham mashg'ulotni turli-tuman uslublarini va yondashishlarini talab qiladi, shunday qilib futbolda texnika va taktik o'yinlar kichik va katta o'lchamlardagi maydonlarda jiddiy farq qiladi.

O'yinchilarga barcha chiziq va pozitsiyalarda ko'rsatadigan ko'pqirrali talablar, murabbiyni doimiy ravishda tanlash bilan shug'ullanishga va zarur bo'lgan vositalarni tabaqalashtirishga majburlaydi. Buning uchun kitobda shunday mashqlar tanlanganini ularni turli tuman o'yin momentlarida va vaziyatlarda shuningdek

komandada futbolchini o‘yin vazifasini – o‘yin ixtisosligini hisobga olish bilan mashqni modellashtiriladi. Bu esa mashg‘ulotni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan mashg‘ulot vositalarini qidirib topishga bekorga vaqtni sarflashdan qochishga imkoniyat beradi. Vositani aniq bilish o‘yin vaziyatida eng ko‘proq tez-tez uchrab turadigan raqibga aniq o‘ziga xosligiga qarab modellashtirishga yordam beradi, raqib komandasiga “Shaxsiy delo” tuzib, uni o‘yin faoliyatini modellashtiriladi.

O‘quv qo‘llanmada shuningdek futbolda taktik xarakter qilishni asosiy arsenalidan mashq kiritiladi, uni egallab olishligi o‘zining texnik jihatdan ta‘minlanganligi o‘yinda maksimal foydalanishga imkoniyat beradi, modomiki bitta o‘yinda ham zahirada himoyada va xujumda bir nechta variantlariga ega bo‘lishi kerak.

Taktik xarakter qilishni o‘rgatishni oddiy elementlaridan boshlanadi, ular o‘rgatishni yillari bo‘yicha murakkablashadi va taktik kombinatsiyalar majmualarini birlashtiradi. Tashqi sharoitni murakkablashtirish mashg‘ulotni umumiy vaqtini, o‘yin maydonini o‘lchamlarini, taktik vazifani bajarish tezligini shuningdek, faol raqibni kirishiga o‘zgartirish kiritish mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada dastur materialini muvaffaqiyatli o‘rganish uchun texnik-taktik mashqni juda ham minimumga keltirilgan. Va nihoyat, yaxshi futbolchiga o‘xshab zaxirasida talant bo‘lishi kerak, xuddi shunday murabbiyga ham eng sir tutilgan vosita ham bo‘lishi kerak, ular yordamida u o‘yinchilarni qobiliyatlarini va komandani to‘liq ochishga yordam beradi.

Keyinchalik shu yo‘nalishdagi izlanish individual tayyorlashda dastur modellarini tuzishda kiritish mumkin bunda futbolchilar o‘ziga xos farqi asosida mashq tanlaydi, bunda eng asosiy amaldagi shaxs uni xarakteri bilan yosh futbolchi bo‘ladi va faqatgina uning o‘ziga xos sifatlarini va albatta, rasmlar ostida, tizimda, komandani barcha o‘yini sxemasi to‘liq maxsus mashqlar tanlanadi.



TEXNIK TAYYORGARLIKNI NAZORAT QILISH

Ko'pchilik sport o'yinlari turlarida texnika tayyorgarligini o'lchash uslublari xali aniqlangan emas.

Dasturdagi nazorat me'yorlari zarur, lekin ular o'rgatish sifatiga va darajasiga to'liq me'yorda ta'sir etmasligi mumkin. Nazorat qilish va baxolashni aniqlash shart. Birinchi navbatda o'rgatishni ma'lum yilida mashg'ulot jarayonida, shuningdek qo'llaniladigan uslublari va vositalarni samaradorligini to'laqonli amalga oshiriladi. Lekin qanday, qaysi parametrlar bilan tekshiriladi?

Boshlang'ich texnik tayyorgarlikni nazorat bahosi alohida elementlarni va to'liq futbol usullarini bajarish darajasiga ta'sir etadi, unda nafaqat xarakter qilish shaklini to'g'riligi, lekin xarakter qilishni to'liqligi, tejamkorligi, bir xilda bajarilishi muhimdir.


Futbolchilarning texnik tayyorgarligini nazorat qilish – mashg'ulot jarayonini majburiy qismidir va bir nechta yillarda o'tkazish mumkin. Ular xar bir o'qitish yili uchun aniq bo'lishi shart va erishilgan yutuqlarini xarakterlaydigan, ko'rsatkichlar soniga, imkoniyatlari bo'yicha aks etadi.

Model o'rgatishni boshlang'ich bosqichida nazorat testi sifatida foydalanishi mumkin, o'sha bo'yicha nafaqat dastur bo'limini o'zlashtirishini baholanadi, lekin, qaysi material yetarli darajada mustaxkam o'zlashtirilganligi aniqlashtiriladi. Chunki o'rganilgan usullar va xarakter qilishni turg'unlik darajasini ko'rish uchun, ma'lum vaqt o'tgandan keyin (modelni) testni takrorlash mumkin.

Texnik darajasini baholash uchun takomillashtirish bosqichida boshqa ko'rsatkichlardan foydalanadi. 1) o'yinda futbolchi, bajaradigan texnikasini hajmi yoki xarakter qilish soni; 2) o'yinda turli tuman xarakter qilishni; 3) texnikani ishonchliligi va samaradorligi hamda albatta uni tezkorlik bilan bajarish.


Vizual yo'li bilan olingan, pedagogik nazorat qilishni natijasi, jadval ko'rinishida beriladi. Bu esa yangi usulni yoki elementni egallash darajasini aniqlashga imkoniyat beradi. Baholash qanday ball tizimida o'tkazishi hech narsa emas biz o'rgatish jarayonini nazorat qilish haqida ijobiy informatsiya olamiz. Bu informatsiya shug'ullanuvchilarning birmuncha darajada faollashishlariga imkoniyat beradi, murabbiy uchun esa u boshqarish maqsadida bo'ladi. O'rganish jarayoni davomida joriy nazoratsiz tipik xatolarni aniqlash va texnik xatolari haqida aniqlab

namoyon qilish mumkin emas. Teskari aloqani yo'qligi yoki xatoga yo'l qo'yishi o'rgatish tizimini bo'sh boshqaradigan bo'ladi yoki umuman boshqarib bo'lmaydi.



DARVOZA

Futbol darvozasi uzunligi 732 sm gorizontal va balandligi 244 sm ikkita vertikal ustunlardan iborat. Darvoza ustunlarinnig diametri 12 sm tashkil qiladi. Darvoza yerga o'rnatilgan/vertikal ustunlari ko'milgan/. Darvozaning orqasida vertikal ustuilarda mustahkamlanib to'pni ushlab qoluvchi to'r 60-100 sm nariga tortiladi.



TO'P

Futbol to'pi - bu o'yinda qo'llanadigan sport anjomi. U qat'iy dumaloq shaklda bo'lib yuqori sifatli charmdan tayyorlanadi. To'pning vazni 396-453 g., Uning aylanasi 68-71 sm. Har bir rasmiy o'yin oldidan hakam to'p vaznini qolip orqali aylanasining to'g'riligini tekshiradi.

BAYROQLAR

Futbol maydonining burchaklarida va yon chiziqlarining markazida bayroqlar o'rnatiladi. Ular 4 burchakdagi bayroqlarni va yon chiziqlarning markazidan 1 m oralig'ida 2 bayroqdan iborat. Bayroq yog'ochining balandligi 1m 50 sm. Bayroq rangba-rang yoki jamiyat sport emblemasi bilan tayyorlanishi mumkin.



FUTBOL O'YIN TEXNIKASI.

Futbol - xalq sevgan o'yin. Uni kichkintoylar, maktab o'quvchilari, o'rta maxsus bilim yurtlari o'quvchilari, oliy o'quv yurtlar talabalari va kattalar havas bilan o'ynaydilar. Lekin futbol sohani o'ziga kasb qila olish uchun faqat sevish emas, balki ko'p yillar davomida yuqori saviyali mehnat orqali uni o'ynash texnikasini mohirona egallash lozim.

“Futbol o'yin texnikasining o'z chegaralari bor: albatta u xamma narsani xal qilmaydi, lekin usiz xech bir yutuqqa erishib bo'lmaydi”. Futbol O'yin texnikasi deganda eng avvalo texnik mahorat nima ekanligini oydinlashtirib olish zarur.

Futbol o'yin texnikasi – bu to'pni aniq egallab olish maxorati tushuniladi. Bunda bir vaqtning o'zida quyidagi savollarga ham javob topish kerak: Nima qilmoq kerak? Buni qanday qilmoq kerak? Qachon, qaerda?

Agar futbolchi to'pni bir joyda uzoq vaqt o'ynatib tura oladigan bo'lsa, bundan hali uning texnik maxorati xaqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. By o'yinchining o'yin paytida to'pni qanday o'ynatishini ko'rish kerak. Uzoq vaqt jonglyorlik qilish, faqat jonglyorlik qilish, faqat jonglyorlikning yaxshi malakasidan darak beradi xolos. Bu xam juda muxim sifat, ammo to'p bilan munosabatda bo'lishi o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirib olish uchun o'yinni tushuna bilish qobiliyatlarini ham tarbiyalash kerak.

Futbol texnikasi haqidagi boshqa tushunchalar to'p yo'nalish va uchish tezligiga tegishlidir. Fizika darslarida Siz, albatta, “markaz” so'zining ma'nosini bilib olgansiz. Shunday ekan, agar to'p markaziga tepilsa, u kuch tushgan yo'nalishida oldinga qarab to'g'ri - aylanmay xarakatda bo'ladi /5-rasm/.

Agar zarb berayotgan oyoq uchlari to'p o'rtasiga tegmasa, u tekislikdan o'ngga yoki chapga burilib ketadi /6-rasm/. Bu ko'pincha noto'g'ri texnika oqibatida ro'y beradi. Lekin ba'zi futbol ustalari taktik nuqtai nazaridan to'pni ataylab darvozaga “burama qilib” yoki raqib orqasida turgan sherigiga yetkazib berish uchun to'pni “burab” tepadi /7-rasm/. Masalan Mirjalol Qosimov bu usulni juda moxirona bajaradi. Bu uzoq muddat va tinimsiz mashq talab qiladigan juda murakkab usuldir.


Ba'zan to'p darvoza to'sini tepasidan o'tib ketadi. Bunga ko'pincha o'yinchilarning tayanch oyoqlarini to'pdan xaddan tanqari

uzoq /orqaga/ qo'yilganligi sabab bo'lib, bunda pastdan yuqoriga qarab zarb beriladi / 8-rasm/.

Xuddi maktabda alifbedan o'qish va yozishni o'rgangandek "futbol" "alifbe"sini o'zlashtirishda ham "alifbe"dan, ya'ni faqat uchta texnik usul va ularning qo'shilmasini bajarishni o'rganib olish kerak:

- * oyoq yuzining ichki va tashqi qismlaridan to'p surish /9-rasm/
- * yugurib kelib oyoq yuzining o'rtasi bilan to'pni tepish /10-rasm/.
- * qarshi tomondan dumalab kelayotgan to'pni oyoq yuzining ichki tomoni bilan to'xtatish /11-rasm/.


Futbol o'yin texnikasini egallash ko'p vaqt, yillar talab etadi. Yuqorida kayd etilgandan tashqari "to'pni xis etish" xususiyatlariga ega bo'lish futbolchilar uchun katta baxtdir. Bu juda muxim xislat. Tayyorlangan ko'rgazmalilik kitobda xuddi shu kobiliyatni takomillashtirishga e'tibor berilgan va futbol o'yin texnikasiga ega bo'lish usullari keltirilgan.



OYOQ YUZASINING ICHKI YON QISMI BILAN TO'PNI TEPISH


Bunday usul to'pni yaqin masofadan mo'ljalni tepish va to'pni o'rtacha, hamda qisqa oraliqda uzatishda qo'llaniladi. Bunda mo'ljal,

to'p, yugurishni boshlanishi va yugurib kelish bir chiziqda bo'ladi, Yugurib kelishda yugurish qadaming siltov kuchi yordamida tizzani bukilishi va tepadigan oyoqning oldinga yozilishi xanona zarb bilan tepish xarakati boshlanadi. To'pni yo'nalishiga nisbatan muskullari taranglashgan oyoqlar tashqariga burilgan bo'lib, tepish vaqtida oyoq to'g'ri burchak holda bo'ladi. Oyoq kaftining ichki qismi bilan to'p teniladi.




OYOK UCHLARINING TASHQI YON QISMI BILAN TO'PNI OLIB YURISH.

Futbol maydonida yugurib yoki sekin harakat qilib, ushbu amal /texnik/ uslubni oyoq uchlarining tashqi yon qismi bilan ketma-ket to'pni tepishni amalga oshiriladi. To'pni olib yurishning bu uslubi universal bo'lib to'g'ri chiziq va harakat yo'nalishini osongina o'zgartirishga imkon yaratadi.



OYOQ YUZASI BILAN TO'PNI TEPIB OLIB YURISH.

Futbol maydoni bo'ylab to'pni oyoq yuzasi bilan ketma-ket to'pni tepib bu usul texnikasi oshiriladi. Bunday to'pni olib yurish usul texnikasi sportchilar tomonidan to'g'ri chiziqli harakatlarda bajariladi.



OYOQ QABARIG'INING PANJARALAR USTI ICHKI QISMI BILAN TO'PNI TEPIB OLIB YURISH.

Bu usul turli masofalarda mo'ljalga tepishlarda hamda uzoq va o'rta oraliqlardan to'pni uzatish jarayonida qo'llaniladi. To'pni tepadigan oyoqning uzatish jarayonida mo'ljal va to'pga nisbatan 45 burchaklikdan yuguriladi. To'pni tepadigan oyoqning tebranishi maksimal. Tayanch oyoq esa tizzalarda sal bukilgan. Gavda holati tayanch oyoq tomonga ozgina engashgan. Tizzaning bukilishidan boshlanib boldirning keskin yozilishining qo'llanilishi bilan to'pni tepish xarakati boshlanadi. Oyoq muskullari taranglashgan, oyoq uchi pastga uzatilgan. To'pning o'rta qismiga tepiladi.




OYOQ QABARIG‘INING O‘RTA QISMI BILAN TO‘PNI TEPISH.

By darvozaga va uzoq masofaga to‘pni zarb bilan eng kuchli tepishdir. Mo‘ljal va to‘pga nisbatan yugurish bir chiziq yo‘nalishida bo‘ladi. Oyoq tebranishi va zarb harakati oyoq oldi hamda orqa qismi bilan bajariladi. Tayanish tovondan boshlanadi. To‘pni va tizza bo‘g‘imini birlashtiradigan shartli chiziq o‘qi tepish vaqtida qat’iy tik holatda bo‘ladi. Oyoq kaftining to‘pga tegadigan yuzasining katta bo‘lishi zarbani juda aniq va kuchli bajarish imkonini beradi. Zarba oq uchini orqaga maksimal egilgan holatida bajarilishi kerak.




OYOQ KAFTI BURMASINING TASHQI VA YON QISMI BILAN TO'PNI TEPISH.

Bu usul uzok va o'rta oraliqlardan to'pni uzatishda qo'llaniladi. To'pni xilma-xil tepishlarda bajarilish harakatlari ko'proq qo'llaniladi. To'pga va mo'ljalga nisbatan yugurib kelish bir chiziq yo'nalishda bo'ladi. Oyoq tebranishi va zarba harakati oyoq /panjarasining/ orqa hamda old qismi bilan bajariladi. Zarba berish vaqtida to'p bilan tizza bo'g'inini tutashtirilgan shartli chiziq qat'iy tik xolatda bo'ladi. To'pni tepish paytida oyoq kafti va boldiri ichki tomonga buraladi va to'pga oyoq kaftining bir muncha tegadigan holatda bajariladi.




OYOQ UCHI BILAN TO'PNI TEPISH.

Bu usul kutilmagan paytda tor fazo va qisqa vaqt ichida qo'llaniladi. Shuningdek uzoq va o'rta oraliqlarda qo'llaniladi, ayniqsa to'pni darvozaga tepish samaraliroqdir. To'pni tepishda mo'ljal, to'p va yugurib kelish bir chiziqda bo'ladi. Oxirgi qadamini qo'yishdagi depsinish to'pni tepish uchun oyoq tebranishi bo'lib hisoblanadi. Tizza bo'g'imlarida biroz egilgan va oyoq muskullari taranglashgan holatda xarakat qilinadi. Tepish paytida oyoq uchlari ozgina ko'tarilgan. Oyoq uchining zarba beradigan juda kam bo'lgani uchun bu usul ayniqsa dumalab kelayotgan to'pni tepishda sust aniqlikka egadir.



TO'PON BILAN TO'PNI TEPISH.


Bu usul qisqa oraliqda to'pni uzatish uchun qo'llaniladi. Bu - tepishning qadr-qimmati raqiblar uchun to'satdanligi, kutilmaganligidir. Oyoq tebranish uchun old tomon to'p ustidan o'tkaziladi va oyoqni orqaga keskin xarakat qilish bilan tepish amalga oshiriladi. To'pni tepish vaqtida oyoq kafti yerga paralel bo'lib, oyoq muskullari taranglashgan.



TO'PNI YERDAN SAPCHISH VAQTIDA TEPISH.


To'p yerdan sapchigan vaqtlarda tepish bajariladi. Tepishga oyoq kafti yuzasining o'rta va tashqi qismi bilan bajarish maqsadga muvofiqdir. To'pni yo'lga tushish joyi va tayanch oyoqni uning oldiga qo'yilishini xisobga olish bu usul bilan tepishda asosiy bo'lib

xisoblanadi. Zarb xarakati to‘p yerga tushmasidan oldin boshlanadi va to‘p yerdan sapchishi bilan darxol tepiladi. Tepish vaqtida boldir qat‘iy tik va oyoq kafti maksimal yozilgan /oyoq uchi pastga uzatilgan/ bo‘ladi.




BURILIB TO‘PNI TEPISH.

Bu usul to‘pni uchish yo‘nalishini o‘zgartirish uchun qo‘llaniladi. Tushayotgan yoki qarshi tomondan past uchib kelayotgan to‘pni tepish asosan oyoq kafti yuzasining o‘rta, ichki va tashqari qisimlari bilan bajariladi. Oxirgi yugurish qadamning depsinishi to‘pni tepish uchun tebranish bo‘ladi. Oyoq tayanch tizza bo‘g‘ilishda ozgina bukilgan bo‘lib, taxminan to‘pni uchish tomon buriladi va gavda xolati tayanch oyoq tomon engashadi. Zarb bilan tepish xarakati gavdaning burilishi bilan boshlanadi.



ORQAGA YIQILISHDA TO'PNI O'Z USTIDAN TEPISH.

Bu usul uchayotgan va tushayotgan to'pni oyoq yuzasining o'rta qismi bilan bajariladi. To'pni tepish bir oyoq bilan depsinib va tushayotgan to'p tomon sakrab bajariladi. Bunda gavda orqaga tashlanadi va tebranayotgan oyoq yuqoriga xarakatlantiriladi. So'ng tebranish oyoq pastga va depsinish xamda to'pni tepadigan oyoq keskin yuqoriga harakatlanadi. Gavda gorizontal holatga o'tganida to'pni orqaga tepish bajariladi. Bundan keyin oldin qo'llarga so'ng orqa yerga tekkan xolda yiqiladi.




PESHONA /O'RTASI/ BILAN TO'PNI TEPISH.

Bu usulni bajarish uchun bosh va gavda orqaga engashadi. To'p o'yinchining ko'z nazoratida bo'lishi uchun boshni orqaga /tashlash/ engashtirish mumkin emas. Gavdaning keskin to'g'rilanishi bilan o'tish harakati boshlanadi. Gavda va bosh /frontal/ yuzada bo'lgan xolatda urish bajariladi. Bu xolatda bosh xarakatlari, eng yuqori tezlikka ega bo'ladi, bu katta kuch bilan urishni ta'minlaydi. Bundan keyin futbolchi keyingi xarakat uchun dastlabki holatni egallaydi. Futbolchi sakramasdan to'pni peshona bilan urganda oyoqlari oralig'i kichik qadamda bo'ladi. Orqada ko'yilgan oyog'ini tizza bo'g'imlarida bukib unga butun tana og'irligini o'yinchi tebranib gavdasini orqaga engashtiradi qo'llari esa tirsaklarda biroz bukilgan. Orqadagi oyoqning keskin yozilishi bilan gavda xam to'g'irlanadi va urish xarakatida bo'ladi, xamda keskin oldinga /qo'yilgan/ bosh egilish harakati bilan yakunlanadi. Butun tana massasi oldingi qo'yilgan oyoqqa o'tkaziladi.




SAKRAB PESHONA O'RTASI BILAN TO'PNI URISH.

Bu usul bir oyoq yoki ikki oyoq bilan depsinib sakragandan so'ng bajariladi. Qo'llar tirsaklarda bukilgan holda oldinga taxminan ko'krak satxigacha xarakatlanadi. Bu esa balandroq sakrashga ko'maklashadi. Depsingandan so'ng gavda orqaga engashadi. Sakrash balandligi eng yuqori nuqtaga yetganda urish xarakati bilan boshlanadi. Yerga qo'nishda oyoq uchlariga tushiladigan va oyoqlar tizza bo'g'inlarida qo'nishni yumshatish uchun ozroq bukiladi.



PESHONANING YON TOMONI BILAN TO'PNI URISH.

Bu usul to'p o'yinchining yon tomonidan uchib o'tishda va peshona o'rtasi bilan to'pni urishga imkoniyat bo'lganida qo'llaniladi. To'pni urishda oyoqlar ochilgan bo'lib gavda to'p yo'nalishiga qarama-qarshi engashadi. Tana massasi /og'irligi/ tizza bo'g'inlarida bukilgan tayanch oyoqqa o'tkaziladi, gavda to'g'rilanishi va oyoqning yozilishi bilan to'pni urish boshlanadi. To'pning urilishi peshona do'mbog' qismiga to'g'ri keladi.




SAKRAB PESHONANING YON TOMONI BILAN TO‘PNI URISH.

Sakrab peshona yon tomoni bilan to‘pni urish uchun bir oyoq yoki ikki oyoq bilan depsinishdan so‘ng bajariladi, bunda tana tebranishi uchun mo‘ljalga qarama-qarshi tomon frontal xolatda orqaga engashadi. So‘ng cho‘ziluvchan mushaklarning dastlabki keskin qisqarishiga binoan urish xarakati bajariladi. Eng yuqori sakrash nuqtasiga erishganda to‘p uriladi.




OLDINGA YIQILISHDA BOSH BILAN TO'PNI URISH.

Bu usul 60-100 sm balandlikda uchayotgan to'pni urishda qo'llaniladi. Bu usul boshqa texnik usullar va yo'llardan foydalanish imkoniyati bo'lmagan to'pga yotish qiyin xolatda /to'p uchidan 3-4 m narida bo'lganida/ samarali zarba berish imkoniyatini beradi. Bir yoki ikki oyoq bilan deysinib uchish jarayonida /fazasida/ urish bajariladi. Gavda yugurishning oxirgi 3-4 qadamlarida oldinga engashadi. Uchish fazasi yerga paralel bo'ladi. Qo'llar tirsaklarda bukilgan. Futbolchining tana massasi va uchish tezligining kuchi bilan to'p uriladi. To'pni urish peshona o'rtasi yoki yon qismi bilan bajariladi.



OYOQNING TAGI BILAN TO'PNI TO'XTATISH.

Bu usul tushayotgan va dumalayotgan to'pni to'xtatish uchun qo'llaniladi. To'pni qabul qiluvchi o'yinchining dastlabki xolati-tayanch oyoqqa tana og'irligini o'tkazib, to'pga qarab turadi. To'pni to'xtatuvchi oyoqni to'p yaqinlashgan sari tizza bo'g'inlarida ozgina bukilib to'p tomon chiqiladi. Oyoq uchlari yuqoriga ko'tarilgan. Tovon nisbatan pastroq. Oyoq kaftining tagi to'pga tegishi bilan biroz yon beruvchi xarakter bilan bajariladi.



OYOQ KAFTINING ICHKI QISMI BILAN TO'PNI TO'XTATISH.

Tushayotgan va uchayotgan, dumalayotgan to'plarni qabul qilishda bu usul qo'llaniladi. Bu usul bilan to'pni to'xtatishda oyoq kaftining katta qismi qatnashishi borasida xam amartizatsion xususkyatlari bilan yuqori ishonch hosil qiladi.

Dastlabki xolat - to'pga qaragan xolda to'g'ri turish.


Tizza bo'g'inlarida ozgina bukilgan tayanch oyoqqa tana massasi o'tkazilgan /og'irligi tushgan/. To'xtatuvchi oyoq oldinga chiqiladi /to'pga qarshi/ oyoq kafti 90° tashqi tomon burilgan. Oyoq uchi ozgina ko'tarilgan.

Oyoq panjaralari va to'p to'qnashishi vaqtida oyoqni orqaga tayanch oyoq oldiga olib kelinadi. Oyoq panjaralarining ichki o'rta qismi to'xtatuvchi qismi xisoblanadi. Yerdan sapchigan to'pni to'xtatuvchi oyoq yengiluvchi xarakatdan so'ng oyoq /panjaralari kafti/ uchining ichki qismi bilan to'pni yerga bosadi.




OYOQ YUZASINING O'RTA QISMI BILAN TO'PNI TO'XTATISH.

Bu usul keng tarqalgak bo'lib, past uchib kelayotgan va o'yinchi oldiga tushayotgan to'pni to'xtatish uchun qo'llaniladi. Taxminan 90⁰ga to'xtatuvchi oyoq soni va tizzalar bukilgan holda oldinga ko'tariladi. Oyoq uchlari ko'tarilgan. Oyoq yuzasi to'p bilan to'qnashish vaqtida orqaga amartizon xarakterni bajaradi. Yuqori yo'nalishidan tushayotgan to'pni to'xtatishda oyoq panjaralarining yuzasi yerga parallel holatda bo'ladi. Yengiluvchi amartizatsion harakat-pastga orqaga bajariladi.




OYOQNING SON QISMI BILAN TO'PNI TO'XTATISH.

Zamonaviy futbolda bu usul keng qo'llaniladi. Turli tuman yo'nalishda tushayotgan to'pni son bilan to'xtatish mumkin. Oyoq sonining to'xtatuvchi yuzasi xamda uning amartizatsion yo'li /xususiyatlari/ juda katta bo'lgani uchun bu usul chuqur ishonch xosil qiladi. To'pni to'xtatish oldidan oyoq soni oldinga ko'tarilib tushayotgan to'pga nisbatan to'g'ri burchakda bo'lishi kerak /oyoq sonining burchak xosil qilishi to'pni uchish yo'nalishiga bog'liq/. Oyoq sonining o'rta qismi to'p bilan to'qnashgan vaqtida orqaga yengiluvchi xarakterni bajariladi.




KO'KRAK BILAN TO'PNI TO'XTATISH.

Bu usulni bajarishdan oldin o'yinchi to'p tomon qarab turgan bo'lib dastlabki holatni oladi. Kichik qadam kengligida /60-70sm/ oyoqlar ochilgan, ko'krak oldinga o'tkazilgan, qo'llar tirsaklarda egilgan xolda pastga tushiriladi. Ko'krak to'p bilan to'qnashgan vaqtda ko'krakni orqaga-ichiga o'tkazib yelkalar va qo'llari oldinga chiqariladi. To'pni to'xtatish yakunida tana og'irlik markazi taxminan to'p yo'nalishi tomon o'tkaziladi.




TUSHAYOTGAN TO'PNI KO'KRAK BILAN TO'XTATISH.

Tushayotgan to'plarni to'xtatishda gavda orqaga engashtiriladi. Gavdaning egilish burchagi to'pni uchish yo'nalishiga bog'liq /tushayotgan to'pga ko'krak to'g'ri burchakda bo'lishi kerak/. Do'mg'ida ozgina oldinga chiqariladi. To'pni uchish yo'nalishi va tezligini aniqlash, hamda o'z vaqtida yengiluvchi harakatni bajarish bu usulni ko'llashda juda zarur.




BOSH BILAN TO'PNI TO'XTATISH.

To'p asosan peshonaning o'rta qismi bilan to'xtatiladi. O'yinchining dastlabki xolati - kichik qadamda bo'lib to'pga tomon qarab turish. Oldinda qo'yilgan oyoqqa tana massasi /og'irligi/ o'tkaziladi. Bosh va gavda oldinga chiqarilgan /taxminan tayanch oyoqgacha/. To'p yaqinlashg'an sari tana massasi orqada qo'yilgan oyoqqa o'tkaziladi xamda bosh va gavda orqaga engashadi.



TUSHAYOTGAN TO'PNI BOSH BILAN TO'XTATISH.

Daetlabki holat - oyoq uchlarida tik turish, oyoqlar yelka kengligida ochilgan yoki kichik qadamda bo'lish. To'p tomon qarab bosh orqaga engashgan. Bosh to'pga tegish vaqtida yengiluvchi xarakat oyoqlarni tizzalarda bukib, boshini yelka ichiga tortish hisobga bajariladi.




OYOQ KAFTINING ICHKI QISMI BILAN TO'PNI OLIB YURISH.

Bu texnik usulni qo'llashda futbol maydoni bo'ylab yugurib oyoq panjaralari kaftining ichki qismi bilan to'pni ketma-ket tepib olib yurishda amalga oshiriladi. Oyoq panjaralari kaftining ichki qismi bilan to'pni olib yurish xarakatining yo'nalishini keskin o'zgartirishga imkoniyat yaratadi.



FINT /RAQIBNI ALDAYDIGAN XARAKAT/ - OYOQ BILAN TO'PNI TO'XTATISH.

O'yinchi raqib to'pni yon tomonidan yoki orqa yonidan olib qo'yimoqchi bo'lganda to'pni bosib va bosmasdan fint qo'llaniladi. O'yinchi keyin yugurib to'pni surishni bajarib raqibdan uzoqroq turgan oyoq kafti bilan to'pni bosib tayanch oyog'ini uning orqasiga qo'yadi. Bu bilan o'yinchi mohirona to'pni yolg'on to'xtatishini ko'rsatadi. Raqib xarakatni sekinlashtiradi va shu vaqtda oldinga to'pni sekin surib xarakatni davom ettiradi.




TEPADIGAN OYOQNI TO'P USTIDAN OLIB O'TIB QOCHIB KETISH - FINT.

Bu fint usuli futbolchining oldida turgan o'yinchiga xujum qilishda qo'llaniladi. To'p bilan bo'lgan o'yinchi o'zining tayyorlov xarakatlari bilan chap tomonga yugurib o'tishni ko'rsatib chapga tashlanadi va o'ng oyog'ini to'p ustidan olib o'tadi xamda gavdasini chap tomonga buradi. Orqadagi raqib o'yinchi to'pni ko'rmasdan bu xarakatga binoan u xam chapga tashlanadi. Bu vaqtda to'p bilan bo'lgan o'yinchi tezda yo'nalishini o'zgartirib o'ng tomonga buriladi va oyoq yuzasining tashqi qismi bilan oldinga uzatib qarama-qarshi tomonga /o'ng tomonga/ to'p bilan ketadi.



FINT TO'PNI TEPISH.


By usul uzatilgan to'pni to'xtatilgandan so'ng to'pni surish vaqtida bajariladi. Yakkama-yakka bellashuvda oldida yoki orqasida, yon tomonidagi qatnashayotgan o'yinchiga yaqinlashganda tepadigan oyoq bilan tebranish harakat bajariladi. O'yinchining bu harakati to'pni uzatish yoki mo'ljalga tepilishini ko'rsatadi. O'yinchi raqib bu oyoq tebranishiga ishongan xolda to'pni taxminiy uchish yo'lini to'sishga yoki to'pni olib qo'yishga harakat qiladi, ya'ni shpagat, podkat. Bu esa hujum qiluvchi o'yinchining xarakatini sekinlashtiradi yoki to'xtadi. Shu paytda o'yin sharoitining yaratilishiga binoan to'p bilan bo'lgan o'yinchi taranglashgan oyoq bilan sekin tepib to'pni oldinga suradi va raqibdan qochib ketadi.



HAMLA QILIB TO'PNI OLIB QO'YISH.


Bu usul 2 mdan ko'proq bo'lgan oraliqdagi to'pda ega bo'la olishga imkoniyat yaratadi. O'yinchining orqasidan yoki yon tomonidan amalga oshiriladi. Xujum qilayotgan o'yinchi, raqib bilan

yaqinlashib, yiqilishda oyog'ini oldinga uzatib to'p bilan bo'lgan o'yinchi tomon o't ustida sirpanib boradi. To'p bilan harakatlanuvchi o'yinchiga nisbatan o't ustida yiqilishda sirpanib borishi bir necha marotaba tezroq bo'lgan uchun to'p urish yo'nalishini xujum qiluvchi o'yinchi o'zgartiradi.



ELKA BILAN TURTIB TO'PNI OLIB QO'YISH.


Ushbu usul yakkama-yakka kurashda kuchlik xarakatlarga kiradi. Shuning uchun bunday harakatlarga ruxsat etilgan qoidalarga qat'iy rioya qilish zarur. Faqatgina o'yin oralig'ida bo'lgan xolda o'yinchi yelkasining $1/3$ yuqorisini turtish ruhsat beriladi. Raqib orqa oyoqdan tayanch xolatda bo'lgan vaqtida yelka bilan turtish mumkin.



YIQILIB TO'PNI OLIB QO'YISH.


Bu usul o'yinchidan ikki metrdan ortiqroq masofadagi to'pni olib qo'yish imkonini beradi va yon yoki orqa tomonidan bajariladi.

Hujumchi raqibiga yaqinlashib uning oyoqlariga sirpanib yiqiladi va undan to'pni olib chetlashtiradi. Natijada to'pni yo'nalishi boshqa tomonga o'zgaradi.



TO'PNI O'YINGA KIRITISHDA QO'L BARMOQLARINING XOLATI.


To'pni tashlashda qo'l barmoqlari ochilgan holda uni yon tomonlarini qamrab oladi, katta barmoqlar bir-biriga tegish oraliqda.



FUTBOL MAYDONINING YON CHIZIQLARIDAN TO'PNI O'YINGA KIRITISH.

Bu tabiiy texnik usul maydon o'yinchisining qo'llari bilan bajariladi. Dastlabki xolat - qadam tashlash holatda yoki oyoqlar yelka kengligida turadi. To'p bilan qo'llar tirsaklarda bukilib tepaga ko'tarilib bosh orqasida o'tkaziladi. Tana massasi orqada turgan oyoqqa o'tkazilib, oyoqlar tizza bo'g'inlarida bukiladilar, gavda orqaga engashadi.

To'pni tashlash qo'l, gavda, oyoqlarning keskin to'g'rilanishi bilan tashlash tomon, yo'nalishiga yakunlovchi barmoqlar zo'r berishidan boshlanadi. Yakunlovchi fazani bajarishda to'pni tashlash qoidalariga rioya qilib futbolchi ikkala oyog'ini yerdan uzmasligi kerak.



DARVOZABON O'YINI.

Eng murakkab va og'ir vazifalar darvozabonlar oldida turadi. Chunki darvozabon maydonda xamma o'yinchilarni nafaqat ko'rish, ularni kuzatib turish lozim. Ayniqsa to'p bilan o'ynayotgan sportchini, to'pni tepilishini, yo'nalishini ko'rish va sezish kerak. Bulardan tashqari futbolchilarning o'yin texnikasini, taktikasini va tayyorgarligini darvozabon bilishi xam shart va maksadga muvofiqdir.

Darvozabon o'yin mahoratiga binoan ko'pincha jamoaning yutuqlari batafsil bog'liqdir. Shuning uchun darvozabondan katta jismoniy tayyorgarlikni, epchillikni, tezkorlikni, chidamlilikni va sezgirlikni talab qiladi. Shu boisdan epchillikni tarbiyalashda, shuningdek xuddi kuch va tezlikda xam oldingi yuklamadan


/nagruzka/ charchash alomatlari bo'lmagandagina, o'zlari mashqlarni bajaradilar, shunga nisbatan yetarli darajada to'liq tiklash uchun dam olish vaqt oraliq'idan foydalanish muximdir.

Futbolchi "portlash" /vzryvnaya sila/ kuchini, tezlikni, epchillikni egallashi qiyin, shuning uchun bu sifatni butun sport xayoti davomida tarbiyalash kerak. Uni tarbiyalashga diqqat e'tibor bilan yondashish kerakki, aynan shu sifat futbolchilarning o'yin faoliyati samaradorligini aniqlaydi.

Quyida darvozabon o'yin texnikasi keltirilgan.


DARVOZABONNING ASOSIY XOLATI.

Texnik usullarni samarali bajarilishi ko'pincha darvozabonning xarakatiga tayyorgarligidan aniqlanadi. Buning uchun darvozabonning har xil xarakatlarini bajarishdan oldingi dastlabki xolat asos bo'ladi. Bu esa, oyoqlar tizza bo'g'inlarida ozgina bukilgan, oyoqlar yelka kengligida ochilgan. Tirsakda bukilgan qo'llar ko'krak satxida oldinga uzatilgan. Qo'l kaftlari ichki tomon va oldinga qaratilgan. Barmoqlar kengroq ochilgan. To'g'ri dastlabki xolat to'pga sakrashda, yiqilishda, qadamlab yurishda, umumiy markaz nuqtasini tezda tayanch xolatdan tashqariga o'tishda imkoniyat yaratadi.




ERDAN SAPCHIGAN TO‘PNI ILIB OLISH.

Dastlabki holat - darvozabonning asosiy xolati. Bu to‘pni ushlab usulida darvozabon sapchilgan to‘p bilan uchrashish nuqtasini aniqlash va xisobga olish kerak. O‘ng darvozabon oldinga engashadi /ko‘l kaftlari va barmoqlari birlashgan, ko‘llar tirsak bo‘g‘inlarida ozgina bukilgan/ va to‘pni ilib oladi. So‘ng to‘pni ikki qo‘li bilan ko‘kragiga tortadi va to‘g‘irlanadi.




DUMALAYOTGAN TO‘PNI PASTDAN ILIB OLISH.

Dastlabki xolat - darvozabonning asosiy turishi. Darvozabon oldinga engashib qo‘llarini pastga tushuradi. Qo‘llari tirsak bo‘g‘imlarida ozgina bukilgan bo‘lib, barmoklari ochilgan qo‘l kaftlari to‘pga qaratilgan va yerga tegish xolda. To‘p bilan to‘qnashish vaqtida darvozabon uni tagidan ko‘tarib oladi. Tushirilgan qo‘llar massasi va ularni egilish amartizatsion xarakat xisobida to‘pning tezligi susayadi. So‘ng darvozabon gavdasini to‘g‘irlab - ko‘tariladi.




UCHAYOTGAN TO'PNI PASTDAN ILIB OLISH.

Dastlabki xolat - asosiy turish, tirsakda yengil bukilgan qo'llar kaftini to'pga qaratgan xolda oldinga uzatiladi. Barmoqlar - ozgina bukilgan va bo'shashtirilgan /taranglamagan/. Oyoqlar ozgina tizzalarda bukiladi va gavda oldinga engashadi. To'p bilan to'qnashishganda darvozabon uni barmoqlar bilan ushlab qorniga yoki ko'krigiga tortadi. Katta zarba bilan tepilgan to'pni /uchayotgan to'pni/ ushlashda gavdani oldinga engashish va oyoqlarni to'g'irlash xisobga olgan xolda orqaga egiluvchi xarakat bajariladi.




O'RTA BALANDLIKDAGI TO'PNI USHLASH.

Dastlabki xolat - ushlaning tayyorlov fazasidagi asosiy turish. Gavda oldinga ko'proq engashadi, qo'llar tirsaklarda yengil bukilib, qo'l kaftlarini to'p ro'parasiga qaratib oldinga uzatiladi. Darvozabon qo'llari to'p bilan to'qnashishi zaxoti qo'l barmoqlari bilan pastdan ushlab tezda uni qorniga tortadi; ikkala oyoq bilan deysinib, qo'llarni uchib kelayotgan to'pga uzatib pastdan uni ushlab tezda ko'krak yoki qorniga tortadi, so'ng yarim bukilgan oyoqdariga tushadi; yetarli to'g'irlangan qo'llarining kaftini pastga qaratilgani xolda uchib kelayotgan to'pga uzatiladi. Qo'llar to'p bilan to'qnashganda yengiluvchi xarakat qilib to'pni qorniga tortadi. To'pni qorniga tortish vaqtida ushlan usulini o'zgartiradi va to'pni pastdan ushlab xamda o'ziga tortib oldinga engashadi. So'ng to'g'irlanadi va o'yin sharoitiga binoan xarakatni bajaradi.




SAKRAB YUQORIDAN TO'PNI USHLASH.

To'pni uchish yo'nalishiga binoan bir yoki ikki oyoq bilan deysinib baland sakrashni bajaradi /old tomon balandlikka yoki yon tomon balandlikka/. Xarakat vaqtida bir oyoq bilan deysinish bajariladi, bir joyda turganda ikki oyoq bilan deysinish bajariladi, bir joyda turganda ikki oyoq bilan deysinish bajariladi. Qo'llar tirsaklarda ozgina bukilgan xolda oldinga uchib kelayotgai to'pga qarshi uzatiladi. Qo'l kaftlari to'pga qaratilgan bo'lib, barmoqlari keng ochilib bir-biriga yaqinlashadi. Darvozabon qisqa yo'l bilan qo'llarini maksimal xolda bukib, to'pni ko'kragi oldiga tortadi. Darvozabon to'pni ushlagandan so'ng ozgina bukilgan oyoqlariga tushadi.



YON TOMONDAN TO'PNI USHLASH.


Dastlabki xolat - darvozabonning asosiy turishi. Bu usul darvozabonning yon tomonidan o'rta yo'nalishda uchib kelayotgan to'pni ushlashda qo'llaniladi. Qo'llar to'pni uchish tomoniga qarab uzatiladi. Qo'l barmoqlari sag'algina bukilib kaftlari kaftlari parallel xolda bo'ladi. Tana massasi to'pni ushlash tomonga yaqinroq oyoqqa o'tkaziladi. Xuddi shu tomonga gavdani xam buriladi. So'ng to'pni ikki qo'llab ustidan ushlagandek xarakatlar bajariladi.



IKKI QO'LLAB TO'PNI DARVOZA TEPPASIDAN O'TKAZISH.

Darvozabon baland uchib kelayotgan to'pni ikkk qo'l bilan darvozaning yuqori ustun tepasidan tashqariga uzatib yuboradi. Bu katta tezlik bilan asosan darvozabon ustidan yoki uning yon tomonidan uchib kelayotgan to'p. To'pni tashqariga uzatib yuborish

bir yoki ikki qo'l bilan amalga oshiriladi. Buning uchun to'pni darvoza yuqori ustunlaridan tashqariga uzatib yuborishda xarakatning boshlanishida bir yoki ikkala taranglashgan qo'lni to'pni uchishining yo'nalishi tomon uzatiladi. Darvozabon baland sakrab burchak xosil qilgan qo'l kaftini uchib kelayotgan to'pga qarshi qo'yiladi va to'p unga tegib uchish yo'nalishini o'zgartirib darvozaning yuqori /ustun/ tepasidai o'tadi.




YIQILISHDA TO'PNI USHLASH.

Darvoza tomon aniq va to'satdan zarb bilan tepilgan to'pni ushlab, yiqilish darvozabon uchun eng ishonchli usul bo'lib xisoblanadi. Bu xarakat to'pni uchish tomoniga tez qadamlab yoki chalkashma qadamlar qo'yilishidan boshlanadi. So'ng to'pni yo'nalishiga yaqin turgan oyoq bilan depsinib to'pni ushlash tomonga gavda engashiladi. Darxol qo'llar to'pga uzatiladi. Qo'l xarakatlari va ikkinchi oyoqning tebranib bukilishi kuchli depsinishga ko'maklashadi. O'rta satxida uchib kelayotgan to'pni ushlashda depsinishning yon tomonga, baland uchib kelayotgan to'pni ushlashda depsinish yuqoriga yon tomonga bajariladi. Darvozabon uchish fazada to'pni ushlash amalga oshiriladi. To'pni ushlagandan so'ng darvozabon g'ujanak bo'ladi /to'p bilan qo'llari qorin va ko'krak oldiga tortilgan, tizzalar xam ko'krak oldiga tortilib bosh oldinga bukilgan/. Vazn og'irligining kuchi ta'sirida yiqilish sodir bo'ladi.



RAQIBNING OYOG'IGA TASHLANISH.

Bu usul, ximoyachilardan raqib to'p bilan o'tib darvozaga yaqinlashganda qo'llaniladi. Darvozabon raqibning oyog'iga tashlanib to'pni olib qo'yishga, uni urib yuborishga yoki to'pni darvozaga o'tish yo'lini to'sishga intiladi. Raqibning ro'parasiga keskin xarakat qilishdan so'ng uning oyog'iga tashlanish boshlanadi. Darvozabon biroz engashadi, gavdasi va ko'llari maksimal pastga tushirilgan. So'ng raqibgacha bo'lgan oraliqni xisobga olib darvozabon to'pga tashlanishni bajaradi; u to'pni raqib oyog'iga bosib qolishga intiladi yoki ikki qo'l bilan to'pni tepishdan oldin yoki tepish vaqtida uni to'sish kerak. Raqib oyog'iga to'pga ko'krak va qo'llar bilan tashlanishda uni olib qo'yish mumkin. Agarda to'pni olishga erisha olmasa, darvozabon qo'llarini, oyoqlarini, ko'kragini butun bag'rini to'p tepilishiga qarshi qo'yish kerak.




MUSHT BILAN TO'PNI URIB YUBORISH.

To'pni musht bilan urib gavdani burish bilan uradigan qo'l mushtini tirsaklarda bukilgan xolda orqaga tebratilishidan boshlanadi. Taranglashgan qo'lining keskin to'g'rilanishi bilan va gavdani burilishi bilan urish xarakati boshlanadi. Mushtning to'p


bilan to‘qnashishi qo‘lni to‘la to‘g‘irlanishidan oldinroq bo‘ladi. To‘pni urish barmoqlarning birini bo‘g‘iniga to‘g‘ri keladi.

Mushtlar bilan urib yuborish. Dastlabki xolat – qo‘llar tirsaklarda bukilib va ko‘krak oldida bo‘lib barmoqlar musht bo‘lib birga qaratilgan. Taranglashgan qo‘llarni bir vaqtda keskin to‘g‘irlab ikki musht bilap to‘pni urib yuborish bajariladi. Urib yuborish turgan joyda va sakraganda amalga oshirilishi mumkin. Sakrashda eng yuqori nuqtaga yetganda to‘pni urib yuborish amalga oshiriladi. Yengilgina bukilgan oyoqlarga ko‘nish bo‘ladi.



TO‘PNI PASTDAN TASHLASH.


Dastlabki xolat - oyoqlar yetarlicha bukilib qadam qo‘yish xolatida bo‘ladilar. To‘pni tagidan barmoqlar bilan ushlab turgan qo‘l pastga tushirilgan. So‘ng darvozabon tebranish uchun qo‘lni orqaga uzatadi va tana massasini oldinda turgan oyoqqa olib o‘tadi. To‘p bilan qo‘l yerga parallel bo‘lgan xolda oldinga shiddatli xarakatda bo‘ladi. Gavda oldinga engashadi. To‘p qo‘lining uchiga tegishi bilan mo‘ljal tomon intiladi.



TO'PNI TEPADAN TASHLASH.

Bu to'pni o'yinga kiritish uchun keng qo'llaniladigan usul. To'pni sherigiga turli yo'nalishda, xar xil oraliqda va yetarlicha aniq uzatishga imkoniyat yaratadi.

Dastlabki xolat - qadam qo'yilgan xolatda turish. Darvozabonning yarim bukilgan va ochilgan barmoqlari bilan kaftida erkin yotgan to'pni ushlab turadi. To'p tirsak bo'g'inlarida bukilgan qo'lda tebranib yon tomondan orqaga va yuqoriga bosh satxicha ko'tariladi. Gavda xam shu tomonga buriladi. Tana massasi orqada ozgina egilib turgan oyoqqa o'tkaziladi. Gavdani burilishi va orqada turgan oyoqni tez qo'lni to'g'irlash xarakterini qilish kerak. Tashlash barmoqlarni shiddatli xarakati bilan yakunlanadi.



TEXNIK TAYYORGARLIK


Xarakatlanish texnikasi

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi


Yugurish mashqlari

1. Oldinga o'ng va chap tomonga yonlama qadam tashlab yugurish.
2. Tizzalarni baland ko'tarib yugurish.
3. Almashlab yugurish.
4. "Bug'ucha yugurish".
5. Boldirni orqaga siltab yugurish.
6. Tizzani baland ko'tarish bilan sakrab yugurish.
7. Tovonni orqaga tashlab to'g'ri oyoqda yugurish.



Tezlikni o'zgartirish bilan bajariladigan yugurish mashqlari

1. Qisqa va uzun qadam tashlab yugurish.
2. Qisqa siltalanib chiqish va sekin yugurish bilan almashlab tezlikni o'zgartirish bilan yugurish.
3. Xarakatda va turgan joyda tezlikni oshirib yugurish.
4. To'satdan to'xtash, 180° , 360° ga burilib va keyinchalik o'ng, chapga tezlikni oshirib yugurish.
5. Murabbiyni tovush signali bo'yicha tezlikni va xarakat yo'nalishini o'zgartirish bilan yugurish.
6. Murabbiyni tovush signali bo'yicha chalishtirma va yonlama qadam tashlab hamda tezlikni oshirish bilan yugurish.



TEXNIK TAYYORGARLIK


Xarakatlanish texnikasi

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi


Statik dastlabki xolatlarda startda turish

1. O'tirgan, yarim o'tirgan, yotgan xolatdan startda turish.
2. "Qo'llarga tayanib" xolatida startda turish.
3. Orqa bilan oldinga qarab turgan holatda startda turish.
4. Yuqori yoki past holatda startda turish.




Dinamik dastlabki holatda startda turish

1. Chuqur o'tirgan holatda yurishdan keyin startdan siltanib chiqish.
2. Birinchi mashqdagini xuddi o'zi, faqat orqa bilan oldinga yurib 180°, 360° ga burilish.
3. Oldinga, orqaga, xarakatda, turgan joyda, o'tirib, sakragandan keyin startdan siltanib chiqish.
4. "Yon tomonda o'tirib yurish" holatidan startdan siltanib chiqish.
5. Oldinga, orqaga umbaloq oshgandan keyin startdan siltanib chiqish.



Har xil yugurish va sakrash mashqlaridan keyin start olishlar

1. Almashlab yugurish, tizzalarni baland ko'tarib yugurishdan keyin startdan tezlik bilan chiqish.
2. Boldirni orqaga siltab yugurishdan keyin, tovonni ko'tarib oyoqni to'g'rilash bilan yugurishdan keyin startdan tezlik bilan chiqish.
3. Oyoqlarni chalishtirib va yonlama qadam tashlab yugurishdan keyin startdan tezlik bilan chiqish.
4. 180° ga burilish bilan oldinga orqa bilan yugurishdan keyin startdan tezlik bilan chiqish.
5. Sakrash mashqlaridan keyin startdan tezlik bilan chiqish.



Texnik tayyorgarlik


Xarakatlanish texnikasi

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi

To'siqlarni oshib o'tish bilan yugurish mashqlarini bajarish

1. Maksimal tezlikda ustunchalarni, bayroqlarni, to'siqlarni aylanib o'tish, bir chiziqqa qo'yilgan to'siqlar ustidan o'tish bilan yugurish.




2. Xuddi 1-chi mashqni o'zi, faqatgina to'siqlar shaxmat yoki erkin tartibda qo'yilgan. Mashqlarni bajarish varianti: qo'l bel orqasida, koptok qo'lda, to'ldirma to'p va shunga o'xshashlar.

3. 1-chi mashqni xuddi o'zi, faqat oldinga orqa bilan yugurish bajariladi.
4. Har bir to'siqni aylanib o'tgandan keyin boshda zarba berishni taqlid qilish bilan yugurish.
5. Har bir to'siq oldida aldamchi xarakatni (fintni) taqlid qilish bilan yugurish.

“Mokisimon yugurish” mashqlarini bajarish

1. Maksimal me'yorda yugurish. Yugurish variantlari 1,2,3-rasm.

2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat yonlama qadam tashlab, oldinga orqa bilan, bir tomonga yugurish va boshqa tomonga tezlashishni yugurish bilan bajariladi va boshqalar (2-rasm).



3. 1-mashqni xuddi o'zi. Bajarish variantlari: to'p bilan, bo'lakchani oxirida boshda zarba berishni sakrab umbaloq oshish bilan taqlid qilish (4-5 rasm).
4. Tezlikni o'zgartirish bilan yugurib oldinga maksimal me'yorda yugurish, orqaga sekin yugurish.
5. Tekis-yugurishni va mokisimon yugurish mashqni birga qo'shib bajarish (6-rasm).

TEXNIK TAYYORGARLIK


Xarakatlanish texnikasi

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi

Har xil vazifalar bilan yugurish mashqlarini bajarish


1. Boshda, oyoqda zarba berish xarakatini taqlid qilib yugurish.
2. Xarakatda tashlanib (podkat) to'pni urib qaytarish, aldamchi xarakatlarni va boshqalarni taqlid qilib yugurish.
3. Sakrash mashqlari bilan birga qo'shib yugurish. Chap va o'ng oyoq sakrashni almashlab yugurish.
4. Qo'llarni har xil xolatda ushlagan xolatda yugurish mashqlarini bajarish: qo'l bel orqasida, bosh orqasida, qo'llar yelkada va boshqalar.
5. Raqibni qarshiligini yengish bilan yugurish mashqlarini bajarish.
6. Har xil estafetalar bilan yugurish mashqlarini bajarish: Alohida jismoniy sifatlarga urg'u berish bilan estafetalar o'tkazish.



Tepalikda va tepalikdan pastga yugurish mashqlarini bajarish

1. Past baland joylar bo‘ylab, tepalikka va tepalikdan pastga maksimal me’yorda yugurish.
2. Qo‘llar ko‘krakda, qo‘llar bel orqasida tepalikka maksimal me’yorda yugurish.
3. O‘ng va chap yonbosh bilan oldinga orqa bilan tepalikka yugurish.

Tepalikdan to‘siqlardan oshib o‘tib, burilib, to‘xtab, tezlanish va boshqalar bilan yugurish.



TEXNIK TAYYORGARLIK


To'pni to'xtatish
yili

O'rgatishni birinchi


№	Mashqni mazmuni	Mashqni bajarish sxemasi
----------	------------------------	---------------------------------

Juft-juft bo'lib dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish


1. Dumalab kelayotgan to'pni o'ng va chap oyoq kaftining ichkm qismi bilan to'pni to'xtatish 1-rasm.



2. Dumalab kelayotgan to'pga ikki marta tekizib, to'xtatish va orqaga qaytadan uzatish. Bir oyoqda to'pni to'xtatish va boshqa oyoqda orqaga uzatish.



3. Navbat bilan o'ng va chap oyoqda dumalab kelayotgan to'pni oyoqning tagi bilan to'xtatish 2-rasm.




4. Oyoq yuzasining o'rta qismi bilan to'pni to'xtatish, xuddi shunday oyoq yuzasini o'rta qismi bilan to'pni orqaga sherigiga uzatish 3-rasm.


5. Zaif oyoq bilan dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish. Xuddi shuning o'zini zaif oyoq bilan orqaga sherigiga uzatish.

Xarakatda juft-juft bo‘lib dumalab kelayotgan to‘pni to‘xtatish


1. Qarama-qarshi xarakatda oyoq kaftining ichki qismi dumalab kelayotgan to‘pni to‘xtatish 1-rasm.




2. Oyoq kaftining ichki qismi va tashqi qismi dumalab kelayotgan to‘pni chap yoki o‘ng tomonga, orqaga ketish bilan to‘xtatish 2-rasm.



3. To‘pni o‘zining oyoqlar o‘rtasidan orqaga o‘tkazib yuborish bilan oyoq kaftini ichki qismi bilan to‘pni to‘xtatish 3-rasm.



4. “Yon tomonga ketish” aldamchi xarakati “aldamchi zarba berishni” ko‘rsatib – aldamchi xarakat taqlid qilish bilan dumalab kelayotgan to‘pni to‘xtatish va boshqalar.



5. Xarakatda dumalab kelayotgan to‘pni qabul qilish va uzatish. To‘pni uzatish va qabul qilib olishni oyoqni ikki marta tekkizib bajarish 4-rasm.

TEXNIK TAYYORGARLIK

To'pni to'xtatish
yili


O'rgatishni ikkinchi

№

Mashqni bajarish tavsifi va mazmuni

Harakatda dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish

1. Xarakterda maksimal tezlikda, xarakter yo'nalishini o'zgartirish bilan dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish, dumalab kelayotgan to'pni o'ng va chap oyoqda to'xtatish.
2. Dumalab kelayotgan to'pni xarakterda ustunni aylanib o'tish, aldamchi xarakterni qo'llash keyinchalik ustunchani yonidan to'pni oshish (prokidivaniem) bilan to'xtatish va boshqalar 2-rasm.
3. Keyinchalik to'pni oldinga tashlash bilan maksimal tezlikda dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish 3-rasm.
4. Oyoq kaftining ichki va tashqi qismi bilan, oyoq tagida va boshqalardumalab kelayotgan to'pni xarakterda o'ng va chap oyoqda to'xtatish.
5. Raqibidan uzatilgan to'pni qabul qilib olgandan keyin dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish. Doirada, raqibini qarshisiga chiqib, raqibidan qabul qilish va boshqalar to'psiz va to'p bilan xarakterlanish.
6. Sherigi to'pni uzatgandan keyin dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish:
 - a)qarama-qarshi xarakterda to'pni qabul qilish bilan;
 - b)to'pni qabul qilib olish va to'pni oyoqlar orasidan orqa tomonga o'tkazib yuborish;
7. Mokisimon yugurishda dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish, oldinga, orqaga, chapga, o'ngga xarakterlanib to'pni to'xtatish va boshqalar.
8. Keyinchalik o'ng va chap oyoqda darvozaga zarba berish bilan dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish 8-rasm. Mashq maksimal tezlikda bajariladi.



TEXNIK TAYYORGARLIK

To'pni to'xtatish
yili

O'rgatishni birinchi

№	Mashqni mazmuni	Mashqni bajarish sxemasi
----------	------------------------	---------------------------------

Uchib kelayotgan to'pni to'xtatish


1. Devorga to'p otiladi va to'p yerdan sapchib qaytgandan keyin oyoq tagida to'xtatishni bajarish 1-rasm.

2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat oyoqning son qismi bilan to'pni to'xtatishni bajariladi.

3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni ko'krak bilan to'xtatishni bajariladi 3-rasm.

4. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat oyoq yuzasining yuqori qismi bilan to'pni to'xtatish bajariladi 4-rasm.

5. 1,2,4 mashqlar bo'shq oyoq bilan bajariladi.



Qochib ketish bilan uchib kelayotgan to'pni to'xtatish


1. To'pni devorga otiladi va to'pni to'xtatishni to'p yerdan (poldan) sapchib qaytgandan keyin orqaga, oldinga, yon tomonga qochib ketish bilan oyoq kafti yuzasini ichki qismida to'xtatishni bajarish 1-rasm.

2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni orqaga qochib ketish bilan oyoq kafti yuzasini tashqi tomonidan to'xtatishni bajariladi 2-rasm.

3. 1,2 mashq zaif oyoqda bajariladi.

4. To'p devorga otiladi va bel orqasiga o'tkazish bilan oyoq kafti yuzasida (to'pni) to'xtatishni bajarish 4-rasm.

5. 4-mashqni xuddi o'zi, faqat bel orqasiga o'tkazish bilan oyoqning son qismi bilan to'pni to'xtatishni bajarish 4-rasm.



TEXNIK TAYYORGARLIK

To'pni to'xtatish

O'rgatishni ikkinchi yili

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi

Tushayotgan to'pni to'xtatish

1. To'p yuqoriga irg'itiladi va yerga (polga) urilib qaytgandan keyin to'xtatish bajariladi:

a) Oyoq yuzasining ichki yon qismida;

b) Oyoq yuzasining tashqi yon qismida;


c) Oyoq kafti yuzasini o'rta qismida;

2. To'pni yuqoriga irg'itish va oyoqning son qismi bilan to'pni to'xtatish 2-rasm.

3. 2-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni ko'krak bilan to'xtatish 3-rasm.

4. 2-mashqni xuddi o'zi, faqat bosh bilan to'pni to'xtatishga qabul qilinadi 4-rasm.

5. Dastlabki holat yerga yoki polga o'tirib tushayotgan to'pni xar hil usullarda to'xtatishni bajarish 5-rasm.



Tushayotgan to'pni keyinchalik zarba berish bilan to'xtatish


1. To'pni yuqoriga irg'itiladi va yerga yoki polga urilib qaytgan oyoq yuzasini ichki qismida to'pni to'xtatish, keyinchalik darvozaga zarba berishni bajarish.

2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat oyoq yuzasini tashqi qismida to'pni to'xtatish, keyinchalik darvozaga zarba berishni bajarish.

3. Tushayotgan to'pni oyoqning son qismi bilan to'xtatish, keyinchalik darvozaga zarba berishni bajarish. Seriya mashqlari tomom bo'lgandan keyin qatorlar joylarini almashadilar va boshqa oyoqda mashq bajaradilar.

4. 3-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni ko'krakda to'xtatish bajariladi va oyoqni ikkinchi marta tekkizilganda zarba berish bajariladi.

5. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni to'xtatgandan keyin aldamchi xarakatni bajarib, to'p boshqa oyoqqa o'tkaziladi va darvozaga zarba berish bajariladi.



TEXNIK TAYYORGARLIK

To'pni to'xtatish

O'rgatishni ikkinchi yili

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi

Juft-juft bo'lib uchib kelayotgan to'pni to'xtatish

1. Juft-juft bo'lib uchib kelayotgan to'pni to'xtatish:

a) Oyoq yuzini ichki qismida to'xtatish 1-rasm;

b) Oyoq yuzini tashqi qismida to'xtatish 2-rasm;


c) Oyoq yuzini yuqori qismida to'xtatish 3-rasm;

2. Uchib kelayotgan to'pni oyoqning son qismi bilan to'xtatish 4-rasm.

3. Uchib kelayotgan to'pni ko'krak bilan to'xtatish 5-rasm.


4. Uchib kelayotgan to'pni bosh bilan to'xtatish 6-rasm.

5. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni sherikni o'ng yoki chap tomonga otiladi va xarakatda oyoq yuzini ichki va tashqi qismida to'xtatishni bajarish.



Keyinchalik zarba berish bilan uchib kelayotgan to'pni to'xtatish

1. Boshda uchib kelayotgan to'pni qabul qilish. Keyinchalik to'pga ikkinchi marta oyoqni tegizishdan keyin zarba berish bajariladi 1-rasm.
2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni qabul qilishni oyoq son qismida bajariladi 2-rasm.
3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni qabul qilishni ko'krakda bajariladi 3-rasm.
4. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat oyoq kafti yuzida bajariladi 4-rasm
5. 1,2,3,4 mashqlarni o'tirgan xolatdan bajariladi 5-rasm.



TEXNIK TAYYORGARLIK

To'pni to'xtatish
yili


O'rgatishni uchinchi

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi




Harakatda juft-juft bo'lib uchib kelayotgan to'pni to'xtatish

1. To'pni orqaga o'tkazish bilan, uchib kelayotgan to'pni oyoq yuzini ichki tomonida to'xtatish 1-rasm.
2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni to'xtatishni dastlabki holatdan to'pni orqaga o'tkazish va olib yurish bilan oyoq yuzini ichki qismida bajarish 2-rasm.
3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat dastlabki holatdan to'pni orqaga o'tkazish va olib yurish bilan oyoq yuzini ustki qismida to'xtatishni bajarish 2-rasm.
4. Dastlabki holatdan to'pni oyoqlar o'rtasidan orqaga o'tkazish va olib yurish bilan uchib kelayotgan oyoq yuzi ichki qismida to'xtatish.



Harakatda tushayotgan to'pni to'xtatish

1. Bitta o'yinchi to'pni bosh ustida otadi, ikkinchi o'yinchi unga siltanib chiqib, harakatda oyoq yuzini ichki qismida to'pni to'xtatadi va uni dastlabki holatga olib boradi 1-rasm.
2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni to'xtatishni oyoq yuzini tashqi qismida bajariladi 2-rasm.
3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni to'xtatishni oyoq yuzini yuqori qismida bajariladi 3-rasm.
4. 1,2,3 mashqni «zaif» oyoqda bajariladi.



TEXNIK TAYYORGARLIK

To'pni to'xtatish

O'rgatishni uchinchi yili

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi

Harakatda tushayotgan to'pni oyoqda to'xtatish


1. Murabbiyni yoki sherigi to'pni otgandan keyin o'yinchi tushayotgan to'pni oyoq tagida to'xtatish uchun siltanib chiqadi.

2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat xarakatda to'pni to'xtatishni chap va o'ng oyoqda oyoqlarini ichki qismida bajariladi.

3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat harakatda to'pni to'xtatishni oyoq yuzini tashqi qismida bajariladi.

4. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni to'xtatmasdan xarakatda oyoq yuzasining o'rta qismida bajariladi.

5. Harakatda uchib kelayotgan to'pni to'xtatishni zaif oyoqda bajariladi.



Keyinchalik zarba berish bilan xarakatda tushayotgan to'pni to'xtatish


1. Murabbiyga yoki sherigiga to'pni oshirgandan keyin, o'yinga tushayotgan to'pni to'xtatish uchun siltanib chiqadi. To'pga oyoqni ikkinchi marta tekkazgandan keyin darvozaga zarba berishni bajaradi.

2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni qabul qilishga oyoqni yuz qismi bilan bajarib keyinchalik darvozaga zarba beriladi.

3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat ko'krakda qabul qilish bajariladi. O'yinchini vazifasi imkoniyati bo'yicha to'pni yerga tushirmasdan, darvoza tomon zarba berishni bajarish.

4. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni qabul qilishni keyinchalik yerdan sapchish vaqtida darvozaga tepish bilan boshda bajariladi.

5. O'yinchi tushayotgan to'pni aldamchi xarakat va keyinchalik darvozaga zarba berish bilan birga qo'shib bajaradi.



TEXNIK TAYYORGARLIK

To'pni to'xtatish

O'rgatishni uchinchi yili


№

Mashqni bajarish tavsifi va mazmuni

Juft-juft bo'lib to'pni to'xtatish

1. Juft-juft bo'lib to'pni to'xtatish. To'pni uzatishni quyidagicha bajariladi:
 - a) to'pni oyoqda, orqaga va boshqalarini topshiriq bo'yicha bajarish;
 - b) uchish traektoriyasi pastdan, yuqoridan, yon tomon bo'ylab;
2. Juft-juft bo'lib to'pni to'xtatish. To'pni yuqoridan uzatishni va yerga qaytgandan keyin to'pni to'xtatish bajariladi.
3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pga oyoq bir marta tekkizgandan keyin to'xtatishni bajariladi, to'pga oyoq ikkinchi marta tekkizgandan keyin orqaga sherigiga uzatiladi.
4. Juft-juft bo'lib to'pni to'xtatish, to'pni yerga urilib qaytgandan keyin yoki qo'l bilan to'xtatishni bajarish uchun uzatiladi yoki oshiriladi.
5. Harakatda to'pni to'xtatish:
 - a) yon tomonga qochib ketish bilan;
 - b) to'pni orqa tomonga o'tkazish bilan;
 - c) oldinga xarakatni taqlid qilish bilan va boshqalar;
6. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni qabul qilish va uzatishga oyoqni ikki marta tekkizish bilan bajariladi. To'pni qabul qilish bir oyoqda va to'pni orqaga uzatish ikkinchi oyoqda bajariladi.
7. To'pni to'xtatish va orqaga uzatish (yoki qarshi tomonga) zaif oyoqda bajarish. To'pga oyoqni tegizish soni chegarasi yo'q.
8. Dumalab kelayotgan to'pni to'xtatish:
 - a) qarama-qarshi xarakatda;
 - b) to'pni orqaga o'tkazib yuborish bilan va uni orqaga uzatish uchun ishlanishi zarur.

Eslatma: o'quvchilarning vazifasi to'pni to'xtatish uchun kutmasliklari kerak, uning katta ishlashga vaqtini kamaytirish uchun "hujum" qilish kerak.



TEXNIK TAYYORGARLIK

Oyoqda zarba berish


O'rgatishni birinchi yili

№ Mashqni mazmuni


Mashqni bajarish sxemasi

Oyoq yuzini ichki qismida to'pni uzatish


1. Bir qadamdan oyoq yuzini ichki qismida qo'zg'almasdan turgan to'pga zarba berish.




2. Juft-juft bo'lib oyoq yuzini ichki qismida pastdan, yuqoridan narigi tomondan hamla qilish bilan to'pni uzatish.




3. 2-mashqni xuddi o'zi faqat to'pni oyoq tagida to'xtatish bilan birga bajariladi, qarshi tomonga oyoq yuzini ichki qismida uzatiladi.



4. Juft-juft to'p uzatish. Bir oyoqda to'pni to'xtatish qarama-qarshi tomonga uzatish boshqa oyoqda bajariladi.




5. Juft-juft bo'lib to'p uzatish. To'pni uzatishdan keyin 360°ga burilib yoki boshda zarba berishni taqlid qilish.




6. Uni qayta ishlash uchun to'pga qarama-qarshi xarakat qilish bilan juft-juft bo'lib to'pni uzatish.

Xarakatda oyoq yuzini ichki qismida to'p uzatish


1. To'pga oyoqni ikki marta tekkazib oyoq yuzi ichki qismida juft-juft bo'lib o'tkazish va qabul qilib olish.



2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'p bilan o'nga, chapga, orqaga, oldinga ketish bilan to'pni qabul qilib olish.



3. Oyoq yuzini ichki qismida juft-juft bo'lib to'pni uzatgandan keyin sherigi tomonga yugurib borib uni o'rniga turish.



4. 3-mashqni xuddi o'zi, faqat o'yinga sherigini aylanib o'tib uni o'rniga turadi.



5. Musobaqalashish:

a) Kim tezda 20 marta to'pni uzatadi;

b) Kim ko'proq to'pni aniq uzatadi

TEXNIK TAYYORGARLIK

Oyoqda zarba berish


O'rgatishni ikkinchi yili

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi


Xarakatda juft-juft bo'lib to'p uzatish

1. Xarakatda juft-juft bo'lib, to'p uzatish. Ikkala sherik doimiy ravishda oldinga orqaga xarakat qiladi.
2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pga oyoqni bir marta tekkizish bilan uzatishni bajaradi.
3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat orqaga yoki qarama-qarshi tomonga to'pni zaif oyoqda uzatiladi.
4. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat oyoq yuzini tashqi tomonida to'pni uzatishni bajariladi.
5. Xarakatda to'pni uzatish, faqat to'pni fint qilish bilan oyoqlar o'rtasidan o'tkaziladi, shundan so'ng orqaga yoki qarama-qarshi tomonga to'pni uzatiladi.



Holatni o'zgartirish bilan juft-juft bo'lib to'p uzatish

1. Juft-juft bo'lib to'p uzatish, sherigiga to'pni uzatgandan keyin ustunchani aylanib o'tiladi.
2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat sherigini bo'sh joyga chiqqandan keyin orqaga yoki qarama-qarshi tomonga to'p uzatiladi.
3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat ustunchani aylanib o'tgandan keyin qarama-qarshi tomonga to'pni sherigiga uzatadi.
4. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat har bir to'pni uzatgandan keyin ikkala sherik ustunchani navbatma-navbat aylanib o'tadilar.
5. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat sherigidan to'pni qabul qilib olgandan keyin o'yinchi to'pni datlabki holatiga olib boradi va to'pni qarama-qarshi tomonga uzatiladi.



TEXNIK TAYYORGARLIK

Oyoqda zarba berish


O'rgatishni ikkinchi yili

№ Mashqni mazmuni


Mashqni bajarish sxemasi

Oyoq qabarig'ining o'rta qismi bilan to'pni tepish


1. Qo'zg'almasdan turgan to'pni turgan joyda oyoq yuzini tashqi qismida zarba berish.



2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat ikki-uch qadamdan yugurib kelib zarba berishni bajarish. 2-rasm



3. Xarakatda oyoq qabarig'ining o'rta qismi bilan to'pni tepish. O'yinchi to'pni 2-3 metr oldinga dumalatib va zarba berishni bajarish. 3-rasm




4. Sherigi tomondan yo'naltirilgan to'pni to'xtatgandan keyin oyoq qabarig'ining o'rta qismi bilan to'pni tepish. Aniq zarba berish, kuchga maqsadga yo'naltirilgan vazifa bilan uzatish va boshqalar. 4-rasm




5. 1,2,3,4 mashqlarni zaif oyoqda bajariladi.

Oyoq yuzini tashqi qismida zarba berish

1. Qo'zg'almasdan turgan to'pga turgan joydan oyoq yuzini tashqi qismida zarba berish. 1-rasm



2. Qadam tashlab oyoq yuzini tashqi qismida zarba berish. 2-rasm



3. To'pga oyoqni bir marta tekizib to'xtatgandan keyin oyoq yuzini tashqi qismida zarba berish.

4. 1,2,3 mashqni zaif oyoqda bajarish.

5. Sakrayotgan to'pni oyoq yuzini tashqi qismida zarba berish. To'pni tashlashni qo'lda yoki oyoqda bajarish mumkin.

2-pacm

TEXNIK TAYYORGARLIK

Oyoqda zarba berish


O'rgatishni ikkinchi yili

№ Mashqni mazmuni


Mashqni bajarish sxemasi

Sakrayotgan to'pga oyoqda zarba berish


1. To'pni yerdan yoki poldan oyoqda yuqoriga irg'itish va polga urilib qaytgandan keyin oyoq qabarig'ining yuqori qismida zarba berishni bajarish. 1-rasm



2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni skameyka ustidan o'tkazib tashlash. 2-rasm



3. 2-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni bitta oyoqda oshirib tashlash, boshqa ikkinchi oyoqda darvoza tomon zarba berish. 3-rasm



4. Qo'lda to'pni yuqoriga irg'itish va yerga qaytib tushgandan keyin navbatma-navbat chap va o'ng oyoqda zarba berishni bajarish. 4-rasm





5. Jongliyorlik qilingandan keyin sakrayotgan to'pga oyoqda zarba berish. 5-rasm

Xarakatda sakrayotgan to'pga zarba berish


1. O'ng oyoqda irg'itish va olib yurishdan keyin to'pga zarba berish. 1-rasm



2. To'pni olib yurish va uni skameyka ustidan olib o'tkazgandan keyin sakrayotgan to'pga oyoqda zarba berish. 2-rasm Bajarish variantlari: Jongliyorlik qilingandan keyin sakrayotgan to'pga zarba berish. 3-rasm



3. 2-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni bir oyoqda skameykani ustidan oshiradi, ikkinchi oyoqda zarba berishni bajaradi.



4. 2-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni skameykaga uzatgandan keyin va keyinchalik skameyka ustidan oshirib sakrayotgan to'pga zarba berishni bajarish. 4-rasm

5. 4-mashqni xuddi o'zi, faqat barcha mashq elementlarini zaif oyoqda bajariladi.

TEXNIK TAYYORGARLIK

Oyoqda zarba berish


O'rgatishni ikkinchi yili

№ Mashqni mazmuni

Mashqni bajarish sxemasi

Xarakatda juft-juft bo'lib to'pni uzatish va qabul qilish

1. Juft-juft bo'lib to'p uzatish. Dastlabki xolatga ketish bilan to'pga qarshi xarakatda oyoq yuzini ichki qismida to'pni qabul qilishni bajarish. 1-rasm




2. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat dastlabki xolatga ketish bilan oyoq yuzini tashqi qismida to'pni qabul qilishni bajarish. 2-rasm




3. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni oyoqlar o'rtasidan orqaga o'tkazib yuborish bilan oyoq yuzi ichki qismida to'pni qabul qilib olish. 3-rasm





4. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni yuqoridan uzatish bajariladi, qarshi xarakatda oyoqda to'pni qabul qilib olish bajariladi. 4-rasm



5. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat to'pni yuqoridan uzatish bajariladi va qarshi xarakatda oyoqni son qismida yoki ko'krak bilan qabul qilinish bajariladi. 5-rasm



6. 1,2,3 mashqni xuddi o'zi, faqat dastlabki xolatga qaytish bilan zaif oyoqda xarakatda to'pni qabul qilish bajariladi.



7. 2-mashqni xuddi o'zi, faqat bir tomonga oyoq yuzini tashqi qismida to'pni qabul qilishni dastlabki xolatga ketish uchun burilish qarama-qarshi tomonga bajariladi. 6-rasm
8. 1-mashqni xuddi o'zi, faqat keyinchalik dastlabki xolatga qaytish bilan yerga yoki polga urilib qaytgan to'pga zarba berish yoki qo'lda to'pni tashlab zarba bergandan keyin to'pni qabul qilish uchun bajarish. 7-rasm

TEXNIK TAYYORGARLIK

Oyoqda zarba berish


O'rgatishni ikkinchi yili

№ Mashqni mazmuni

**Mashqni bajarish sxemasi.
Izoh.**

Juft-juft bo'lib to'p uzatish


1. Oyoq yuzini har xil qismida juft-juft bo'lib to'p uzatish. 1-rasm
2. To'pni maqsadga yo'naltirish bilan uzatish: pastdan, yuqoridan, oyoqqa, orqaga.
3. To'pni uzatishni bajarish usuli bo'yicha aniqlanadi: yumshoq, kesib, tashlab, plassirovannnye.
4. To'pga bir va ikki marta tegizish bilan uzatish.
5. Juft-juft bo'lib bir vaqtning o'zida ikkita to'pni uzatish.



Masofa 25mdan kam bo'lmasligi kerak. To'pni qabul qilishga qochib ketishga, berkinishga, to'sishga, diqqatni qaratilishi kerak.

Xarakatda juft-juft bo'lib to'p uzatish

1. To'pni uzatishni yo'nalishi va bajarilish usuli bilan bo'yicha juft-juft bo'lib aniqlanadi: oyoqda chiqish bilan va boshqalar. 1
2. To'pga oyoqni bir va ikki marta tekkazib xarakatda juft-juft bo'lib to'pni uzatish. 2
3. Bir daqiqada uzatishni bajarish soni oyoqni ikki marta tekkazib juft-juft bo'lib to'p uzatish.
4. To'pga oyoqni ikki marta tekkazib xarakatda juft-juft bo'lib ikkita to'pni uzatish. 3
5. To'pni ishlashga maksimal vaqt sarf qilib, topshiriq bilan juft-juft bo'lib to'pga oyoqni ikki marta tekkazib uzatish.



TEXNIK TAYYORGARLIK

Oyoqda zarba berish


O'rgatishni birinchi, ikkinchi yili

№ Mashqni mazmuni


Mashqni bajarish sxemasi.

I. Jonglirovka qilish usullari va bajarishda to'pni egallash texnikasi

1. Sherigiga to'pni tepib uzatgandan keyin uni polda yoki yerdan ushlab qaytgandan keyin juft-juft bo'lib jonglirovka qilish. 1-rasm



2. To'p poldan yoki yerdan sapchib qaytgandan keyin to'pni oyoqda jonglirovka qilish. Navbatma-navbat o'ng va chap oyoqda tepib bajarish. 2-rasm



3. To'p poldan yoki yerdan tegib qaytgandan keyin o'zini boshidan oshirib, to'pni tepish bilan jonglirovka qilish. 3-rasm

4. Maksimal miqdorda bir oyoqda turib, to'pni jonglirovka qilish. 4-rasm

5. Ixtiyoriy ravishda to'p bilan jonglirovka qilish: qo'llar bel orqasida, bosh orqasida, qo'llar ko'krak oldida va boshqalar. 5-rasm

6. Navbatma-navbat bilan chap va o'ng oyoqda ikki martadan to'pga tepish bilan jonglirovka qilish.

II. Jonglirovka qilish usullarini bajarishda to'pni egallash texnikasi

1. Oyoqni ichki va tashqi qismida navbatma-navbat to'pni jonglirovka qilish.



1-pacm

2. O'ng va chap oyoqda, to'pni balandroq tepib jonglirovka qilish. 1-rasm



2-pacm

3. Oldinga, orqaga xarakat qilib o'ng va chap oyoqda jonglirovka qilish. 2-rasm




3-pacm

4. Xarakatda navbatma-navbat boshda oyoqda to'pni jonglirovka qilish. 3-rasm



4-pacm

5. Chap oyoqda qanday bo'lsa xuddi shunday o'ng oyoqda, uchib kelayotgan to'pni yumshoq to'xtatish bilan jonglirovka qilish. 4-rasm



5-pacm

6. To'siqni oshib o'tish bilan xarakatda to'pga jonglirovka qilish (skameyka ustidan, ustunchalar o'rtasidan va boshqalar). 5-rasm

TEXNIK TAYYORGARLIK

Oyoqda zarba berish


O'rgatishni ikkinchi va uchinchi yili

№ Mashqni mazmuni


Mashqni bajarish sxemasi.

“Jonli devorga“ o‘ynagandan keyin darvozaga zarba berish

1. Qatorlardan biri A bilan devorga to‘pga oyoqni bir marta tekkizish bilan o‘ynaydi va darvozaga zarba berishni bajaradi. 1-rasm
